

65
2.21

Sh.N.Xayitov, O.Q.Akramova

LOGISTIKA



Toshkent – 2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

BUXORO MUHANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SH.N. XAYITOV, O.Q. AKRAMOVA

LOGISTIKA

O‘QUV QO‘LLANMA

Texnikumlardagi o‘rta maxsus professional ta‘lim darajasidagi
0.32.12.00 – “Statistika” (tarmoqlar bo‘yicha) mutaxassisligida
ta‘lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan.

“TURON NASHRIYOT”

Toshkent – 2021

UO'K 164(075.8)
KBK 65.40ya73
X21

Logistika [Matn] : o'quv qo'llanma / Sh.N. Xayitov, O.Q. Akramova. -Toshkent: "Turon Nashriyot", 2021. -144

Ushbu o'quv qo'llanmada "Logistika" fanining mohiyati va vazifalari, asosiy tushunchalari, logistik operatsiyalarining asosiy bosqichlari va uning mamlakat tashqi savdo aylanmasidagi tutgan o'rni, O'zbekiston Respublikasida logistika xizmatini shakllanishi va rivojlanishi, rivojlangan mamlakatlarning logistik kompaniyalar tashkil etish tajribasi, Respublikamiz tashqi savdo salohiyatini oshirishda erkin iqtisodiy hududlar va logistik markazlarning ahamiyati, transport logistikasi, ishlab chiqarish logistikasi, tijorat logistikasi tushunchasi va uning maqsadi, omborxonalar logistikasi, agrologistika, xalqaro yuk tashuvlarini amalga oshirishda xalqaro transport konvensiyalari va boshqa masalalar keng yoritilgan.


O'quv qo'llanma 0.32.12.00 - "Statistika" (tarmoqlar bo'yicha) mutaxassisligida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

UO'K 164(075.8)
KBK 65.40ya73

Taqrizchilar:

S.U. Tadjiyeva - Buxoro Davlat universiteti "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Sh.B. Ochilov - Buxoro MTI "Menejment" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

ISBN – 978-9943-7611-9-3



©"Turon nashriyot", 2021

KIRISH

"Logistika" fanini o'rganish ob'yekti moddiy va ular bilan bog'liq bo'lgan axborot oqimlari hisoblanadi. Fanning dolzarbligi va uni o'rganishga bo'lgan qiziqishning keskin ortishi logistik yondashuvdan foydalanish orqali moddiy tizimlar faoliyati samaradorligini oshirishning potensial imkoniyatlari bilan bog'liqdir. Logistika xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar olib kelish bilan iste'molchiga tayyor mahsulot yetkazib berish o'rtasidagi vaqt oralig'ini keskin qisqartirish imkonini beradi. Yuklarni saqlash va tashish xarajatlarini keskin qisqartirishga imkoniyat yaratadi. Logistikaning qo'llanishi ma'lumot olish jarayonini tezlashtiradi, servis xizmati darajasini oshiradi.

Logistika sohasidagi faoliyat ko'pqirralidir. U transport, ombor xo'jaligi, zaxiralar, xodimlar boshqaruvi, axborot tizimlari, tijorat faoliyati va ko'plab boshqalarni tashkil etishni qamrab oladi. Sanalgan vazifalarning har biri tegishli soha fanida chuqur o'rganilgan va bayon etilgan. Logistik yondashuvning prinsipial yangiligi yuqorida sanalgan faoliyat sohalarning maromli tashkil etilgan yengil boshqaruvini va yuqori samarali material o'tkazuvchi tizimlarini yaratish maqsadidagi uzviy bog'liqligini ta'minlash hisoblanadi.

Logistik tarzda tashkil etilgan tizimlar an'anaviy material o'tkazuvchi tizimlardan xuddi zamonaviy avtomobil XX asr boshlaridagi avtomobildan farq qilgani kabi farq qiladi. Logistikaning nazariy fan sifatidagi maqsadi xuddi shunday tizimlarning paydo bo'lishi va amal qilishi qonuniyatlarini o'rganishdir. Logistikaning amaliy faoliyat tarzidagi maqsadi esa ushbu tizimlarni yaratish va ularning amal qilishini ta'minlash hisoblanadi. Moddiy oqimlarni boshqarish har doim xo'jalik faoliyatining muhim tomoni hisoblanib kelingan, biroq nisbatan ya'ni, vaqtlarda u iqtisodiy faoliyatning eng muhim vazifalaridan biri tarzidagi mavqega ega bo'ldi. Asosiy sabab iste'molchining tez o'zgaruvchi xohish - istaklariga tez moslashuvchan bo'lgan ishlab chiqarish va savdo tizimlari zaruriyatini tug'dirgan sotuvchi bozoridan iste'mol bozoriga o'tishidir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda raqobat bozorida kimki logistika sohasida layoqatli bo'lsa, yetakchilik mavqega ega bo'ladi. Logistikaning ijobiy xususiyatlarini joriy qilinishiga, birinchi

navbatda, ishlab chiqarish faoliyati yo'nalishini ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi va sotuvchi bozorida iste'molchi bozori tomon o'zgarishi sabab bo'lmoqda. Bu o'z navbatida moddiy-texnik ta'minot, sotish, transport ta'minoti va mamlakatda ilgari mavjud bo'lmagan ulgurji va chakana savdo sohaslaridagi qator jiddiy va chuqur izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Xarajatlarni logistik optimallashtirishning zarurligi va maqsadga muvofiqligini, ishlab chiqarish, moddiy-texnik ta'minot, sotish, savdo va faoliyatning boshqa yo'nalishlarida yuzaga kelayotgan yangi sharoitlarda transport xizmatlari ko'rsatishning dolzarbligi va ishonchliligini hisobga olgan holda, mamlakatda qishloq xo'jaligi logistikasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning safi shakllanmoqda.

Qishloq xo'jaligi bilan bog'lik ayrim funksional jarayonlarning mu-rakkabligi va o'ziga xos xususiyatlariga ega ekanligi uchun, axborot va moliyaviy oqimlarni boshqarishda logistik yondashuv imkoniyatlarini, hamda logistik xizmat ko'rsatishning huquqiy ta'minoti muammolari ustida izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Milliy tovar ishlab chiqaruvchilar, tovarlarni mijozlarga yetkazib beruvchilar va ushbu bozorni chet el kontragentlari bilan integratsiyala-shuvi jarayonlari, xalqaro iqtisodiy aloqalar logistika sohasidagi tadqi-qotlarni, ustuvor ekanligini belgilab beradi.

Logistik tadqiqotlar o'tkazilishi jarayonida, yig'ilgan ilmiy salohiyat, jumladan, kibernetika, tizimlar, graflar, ishonchlilik, kelishuvchanlik, tasodifiy jarayonlar, iqtisodiy-matematik va iqtisodiy-statistik modellashtirish, dasturlash nazariyalarini va ilmiy izlanishlarning boshqa usullarini, va shuningdek axborot va kompyuter texnikasini qo'llashning shakllari va uslublari takomillashib bormoqda. Bundan tashqari logistika o'z xususiyatlariga muvofiq, bozorning talablariga mos keladigan yangi izlanishlar uslubiyotlarini va ularni amalga oshirish texnologiyalarini tizimli va majmuaviy tarzda yondashishga turtki bo'lishi va yordam berishi lozim.

I BOB. "LOGISTIKA" FANINING PREDMETI, MOHIYATI VA MAZMUNI

1.1. "Logistika" fanining mohiyati va vazifalari, asosiy tushunchalari.

1.2. Logistik operatsiyalarining asosiy bosqichlari va uning mamlakat tashqi savdo aylanmasidagi tutgan o'rni.

1.3. Xalqaro transport tashuvlarida xalqaro yo'nalishlarning tahlil qilish va istiqbollashning vazifalari, usullarining mazmuni.

1.1. "Logistika" fanining mohiyati va vazifalari, asosiy tushunchalari



"Logistika" - grekcha so'z - tarjima: hisoblash to'g'risidagi fan. Logistikaning vujudga kelish va rivojlanish tarixi harbiy faoliyat bilan bog'liq. XIX asrning boshlarida yashagan frantsuz harbiy mutaxassisi A.G. Djomini logistika bo'yicha yozilgan birinchi kitobning muallifi hisoblanadi.

Logistika tushunchasi o'zining tarixiga ega. Qadimgi greklar logistika deb hisob-kitoblarni amalga oshirish san'atini tushunishardi. Maxsus davlat nazoratchilarini logistlar deb atashardi. Qadimgi Rimda esa logistika deb mahsulotlar taqsimoti tushunilardi.

Keyinchalik logistika atamasi harbiy qo'shinlarning joylashishi va harakatlanish amaliyotini tasniflashda ishlatila boshladi. Eramizning IX—X asrlarida yashagan Vizantiya imperatori Leon V, o'zining harbiy ish bo'yicha kitobida «logistika» atamasini «front oldi, qo'shinlarning ta'minoti» ma'nosida ishlatadi¹.

O'zbekiston tarixiga kelsak, logistika masalalariga buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temur armiyasida katta ahamiyat qaratilgan. Amir Temur armiyasi tashkiliy va harbiy tuzilishda,

¹ Umarova D.M., Bo'ronova M.A., Zuxurova N.A. Logistika. O'quv qo'llanma. I.: TATU, 2007. 83-b.

Shunindek, jang olib borish usullari borasida eng katta va qudratli nrmiya edi. Amir Temur o'z armiyasini yetti ko'lga (korpusga) ko'mgan. Ularga amirlar, shahzodalar qo'mondonlik qilishgan va markaz, o'ng, so'l, qanvuldan joy olganlar. Ba'zi ko'llar Amir Temur tomonidan zaxiraga ehtiyot uchun ajratilgan.

Bunday tartib qanotlarinigina emas, balki markazni ham birmuncha kuchaytirgan.

Markaz ixtiyorida ilg'or, qanvul va ehtiyot qismlar bo'lib, u jang taqdirini hal etgan².

Qo'shinni to'plash va ularni taqsimlash bilan tavochilar shug'ullanishgan. Yurish davrida har bir askar o'zi bilan kamon va 30 ta o'q, chopar va to'ra, qilich va bir oyga yetarli ozuqa olishi lozim bo'lgan. Har bir askar ikki ot, har o'n kishi o'zi bilan birga bir biyma (chodir), ikki soyabon, bir bel, o'roq, arra, tabar, yuz dona igna, arqon, charm mesh, qozon olgan. XIX asr boshida, Napoleon urushlari davrida logistikaga zaxiralarni rejalashtirish, tashish va qo'shin ta'minotini boshqarish to'g'risidagi fan sifatida qaraladi.

Sankt-Peterburgda 1850-yilda nashr etilgan «harbiy ensiklopedik leksikon»ga asosan Rossiyada XIX asr o'rtalarida logistika deb qo'shinlarning dushman yaqinida ham, o'zagida ham harakatlanishini boshqarish va ularning frontorti ta'minotini tashkil etish san'ati tushunilardi. Harbiy logistikaning rivojlanishida yangi bosqich ikkinchi jahon urushi davomida vujudga keldi, bunda logistik qarashlar janglarni tayyorlash va rejalashtirishda keng qo'llanila boshladi.

XIX asrning 50-yillarida moddiy oqimlarni boshqarish masalalari harbiy logistikada qo'llaniladigan uslublar yordamida hal etilishi mumkinligi tan olindi.

XX asrning 70-yillari boshida turli mamlakatlar iqtisodiyotida logistik qarashlar keng qo'llanila boshladi. Asta-sekin logistika va logistik boshqaruv tushunchalari turli shakllarga ega bo'ldi va ishlab chiqarish hamda tovar almashinuvining turli xil tarmoqlariga kirib bordi.



Bugungi kunda logistikaga moddiy oqimlarni boshqarish sifatida qaraladi. O'z davrida Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk Ipak Yo'li orqali bo'ladigan turli xil tovar almashinuvi hamda savdo-sotiq jarayonlarida logistika elementlarini yaqqol ko'rish mumkin. Logistika tushunchasini tasniflashda bir nechta qarashlar mavjud. Ularning ko'pchiligi bu tushunchani moddiy oqim va axborot oqimi bilan bog'lashadi. Logistikaning barcha tasniflarini ikkita guruhga ajratish mumkin. Ulardan biri logistikani xo'jalik faoliyatining bir yo'nalishi sifatida tushuntiradi, u ishlab chiqarish va tovar almashinuvi sohalarida moddiy va axborot oqimlarini boshqarishdan iborat.

Ikkinchisi logistikani ilmiy yo'nalish sifatida o'rganadi, u moddiy va axborot oqimlarining samaradorligini oshirishning yangi imkoniyatlarini qidirish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

Adabiyotlarda logistikaga xo'jalik yuritishning ilmiy-amaliy yo'nalishi sifatida yondashish keng tarqalmoqda. Bu yondashish ishlab chiqarish va tovar almashinuvi sohalarida moddiy va axborot oqimlarini samarali boshqarishdan iborat.

Rossiyada 1995-yilda nashr etilgan logistika bo'yicha ilmiy lug'atda logistikaga quyidagicha tasnif berilgan:

«Logistika — ishlab chiqarish korxonasi-gacha xomashyolarni yetkazib berish, xomashyo, materiallarni, yarim-tayyor mahsulotlarni qayta ishlash, tayyor mahsulotni iste'molchigacha yetkazib berish hamda zarur ma'lumotni qayta ishlash, saqlash va jo'natish jarayonida bajariladigan tashish, saqlash hamda boshqa moddiy va nomoddiy operatsiyalarni boshqarish va nazorat qilish to'g'risidagi fandir»³.

Yuqoridagilarni umumlashtirib logistikaga qisqaroq tasnif berish mumkin.

Logistika — moddiy va axborot oqimlarini, ularning birinchi manbayidan to oxirgi iste'molchigacha bolgan harakatini boshqarish, nazorat qilish, rejalashtirish va tashkil etish to'g'risidagi fandir.

² Axmedov B. Tarixdan saboqlar. — T.: 1992

³ Родников А. Н. Логистика: Терминологический словарь. — М.: Экономика, 1995.

Logistikani o'rganish ob'yekti moddiy va unga tegishli moliyaviy, axborot oqimlaridir.

Logistikaning funksiyalari. Logistika materiallar harakatining har bir bosqichida moddiy oqimlarning ishlashini ta'minlash va tashkil etishni o'z ichiga oladi. Logistikaning uchta funksiyasi ajratiladi:

— integratsiyalashuvchi — tovar harakati jarayonini bir butun jarayon sifatida tashkil etadi;

— tashkillashtiruvchi — tovar harakati qatnashchilarini o'zaro kelishilganligini ta'minlaydi;

— boshqaruvchi — material o'tkazuvchi tizim parametrlarini belgilangan chegarada ushlab turadi.

Integratsiyalashuvchi funksiya. Tovarlarni yetkazib beruvchidan iste'molchigacha bolgan harakati davomida moddiy oqim materiallarni sotib olish, mahsulotni ishlab chiqarish va taqsimlash (sotish) bosqichlaridan o'tadi. Tovar harakatining har bir bosqichi o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi va faqat unga tegishli bo'lgan masalalarni yechadi. Lekin ularning birontasi ham tovar harakati jarayonidan tashqarida mustaqil ko'rib chiqilishi mumkin emas. Bu jarayonda muhim o'rinni sotish egallaydi, u ishlab chiqarishning tashkiliy va iqtisodiy xususiyatlarini, materiallar haridining hajmini va nomenklaturasini hamda bu bosqichlarning bir-biriga munosabatlarini asoslab beradi.

Shu bilan birga tovar harakatining har bir bosqichi o'z o'rnida ham ishlab chiqarish jarayoniga, ham umuman tovar harakati jarayonining o'tishiga ta'sir o'tkazadi. Masalan, savdo bozorining kengayishi ishlab chiqarish va harid qilish hajmining o'sishiga olib keladi.

Materiallar yetkazib berilishining vaqtinchalik to'xtashi yoki ijraga qo'yilgan taklifning keskin oshib ketishi, materiallarni katta miqdorda va arzonroq narxda sotib olish hisobiga zaxiralar miqdorining ortib ketishiga olib keladi. Logistika harid qilish, ishlab chiqarish va sotish bosqichlarini hitta umumiy jarayonga birlashtiradi.

Logistika orqali materiallar oqimini boshqarish bir butun, migratsiyalashgan tizim sifatida amalga oshiriladi, u xomashyo manbalarini

qayta ishlashning bir nechta bosqichlarini va tayyor mahsulotni sotishni qamrab oladi. Tizim ostining alohida, lokal masalalaridan ishlab chiqarish tashkilotining global maqsadlariga o'tish amalga oshiriladi.

Tashkillashtiruvchi funksiya. Tovar harakati jarayonida yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar o'rtasida xo'jalik aloqalari tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Xo'jalik aloqalarining ob'yektiv asosi bo'lib mehnatning tovar harakati bosqichlari bo'yicha bo'linishi xizmat qiladi, bu esa jarayonlarning alohidalashuviga olib keladi va turli aloqa tizimlari birlashtiruvchilarini sozlash talabini vujudga keltiradi. Bu masalaning yechimi bir butun oqimli jarayon ichida materiallar va axborotning «ishlab chiqaruvchi — iste'molchi» zanjiri bo'yicha harakatini tashkil etish, alohida bosqichlari o'zaro ta'sirini ta'minlash va tovar harakati qatnashchilari harakatlarini moslashtirish orqali amalga oshiriladi.

Boshqaruvchi funksiya. Ko'rib chiqilayotgan jarayonning hamma qismlarini bir-biriga moslashtirish va ratsional o'zaro harakatiga erishish uchun ularni boshqarish zarur. Logistik boshqaruv hamma turdagi resurslarning iqtisodiga, tovar harakati bosqichlarida jonli va buyumlashtirilgan mehnatga ketadigan xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan. Keng ma'noda logistikaning materiallar harakati jarayoniga boshqaruv ta'siri material o'tkazuvchi tizim parametrlarini berilgan chegarada saqlashdan iborat.

Shunday qilish, logistika tovar harakati jarayonining shakllanishini, logistik jarayonning alohida bosqichlar va qatnashchilari o'rtasida zarur xo'jalik aloqalarini o'rnatish yo'li bilan uning samarali ishlashini va materiallar oqimi harakatining boshqaruvini ta'minlab beradi.

Logistika asosining tasnifi. Logistikaning asosiy maqsadi — ishlab chiqarilgan mahsulotni vaqtida va zarur miqdorda belgilangan joyga eng kam xarajatlar bilan yetkazib borishdir.

Logistik funksiyalar va maqsadlarning yig'indisini logistikaning asosi tasniflaydi deyiladi. Logistikaning asosi integratsiyalashuvdan, tovar harakati jarayonining qatnashchilari va bosqichlarining o'zaro hamjihatligini ta'minlashdan, zarur mahsulotlarni belgilangan joyga,

so'ralgan vaqtda eng kam xarajatlar bilan yetkazib berish maqsadida moddiy oqimni, unga tegishli bo'lgan ma'lumotlar asosida boshqarishdan iborat.


Logistik tizimda bo'lib o'tayotgan va tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirini xarakterlovchi jarayonlar logistikaning tuzilishini amaliy faoliyat turi sifatida ochib beradi.

Logistikaning asosiy tushunchalari. Logistika o'zining tushunish apparatiga ega, uning tarkibiga logistikaga xos bo'lgan kategoriyalar, tushunchalar, atamalar kiradi.

Moddiy oqim. Moddiy oqim tushunchasi logistikada muhim o'rin tutadi. Moddiy oqimlar tashish, omborga joylashtirish va xomashyo, yarimtayyor mahsulotlar hamda tayyor mahsulotlar bilan boshqa moddiy amallarni bajarish natijasida yuzaga keladi.

Moddiy oqim — bu vaqt oraliq'iga keltirilgan va har xil logistik amallarni joriy etish jarayonida ko'rib chiqilayotgan tovar — moddiy boyliklarning yig'indisi. Ishlab chiqarishning aniq manbayidan to iste'molgacha bo'lgan oraliqda joylashgan bir turdagi resurslar yig'indisi oddiy moddiy oqimni yuzaga keltiradi. Korxonada shakllanadigan bir nechta oddiy oqimlar korxonaning me'yoriy faoliyatini ta'minlab beruvchi integrallashgan moddiy oqimni tashkil etadi.

Moddiy oqimlarning harakatlanish sxemasi 1.1-rasmda keltirilgan.



1.1-rasm. Moddiy oqimlarning harakatlanish sxemasi.

Moddiy oqimlarning tashqi va ichki, kiruvchi va chiquvchi turlari ajratiladi. Tashqi moddiy oqim - bu berilgan logistik tizimga nisbatan tashqi muhitda o'tadigan oqimdir.

Ichki moddiy oqim — bu berilgan logistik tizimga nisbatan ichki muhitda o'tadigan oqimdir.

Kiruvchi moddiy oqim — bu berilgan logistik tizimga kirayotgan tashqi oqimdir. Chiquvchi moddiy oqim — bu berilgan logistik tizimdan tashqi muhitga chiqayotgan moddiy oqimdir.

Moddiy oqimlarni boshqarish materiallar harakatining yo'nalish parametrlarini aniqlashni ko'zda tutadi, ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- moddiy resurslarning nomlanishi;
- moddiy resurslarning miqdori;
- boshlang'ich nuqta (ta'minotchini tanlash);
- oxirigi nuqta (iste'molchini tanlash);
- vaqt (buyurtma bajarilish muddati).

Axborot oqimi. Axborot oqimi — bu logistika ichida va tashqi muhit orasida aylanayotgan hamda logistik jarayonlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar yig'indisidir.

Axborot oqimi moddiylikka mos keladi. Amaldagi logistik tizimlarda moddiy va axborot oqimlari, ba'zi hollarda bir-biridan o'tib ketishi mumkin. Axborot oqimi moddiy oqim bilan bir xil (to'g'ri) yo'nalishda va unga qarama-qarshi (teskari) yo'nalishga ega bo'lishi mumkin. To'g'ri yo'nalishda o'zib ketayotgan axborot oqimi yuklarni kutilayotgan kelib tushishi haqida, teskari yo'nalishda esa - buyurtma haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Moddiy oqim bilan bir vaqtda unga parallel ravishda ko'chirilayotgan resurslarning sifat va ko'rsatkichlari haqida ma'lumot ham boradi. Moddiy oqim ketidan teskari yo'nalishda yukni qabul qilish natijalari haqidagi ma'lumot hamda noroziliklar va tasdiqlar kelishi mumkin. Axborot oqimining ichki va tashqi, kiruvchi va chiquvchi turlari ajratiladi, ularning tasnifi moddiy oqim tasniflari bilan bir xildir. Axborot oqimi vujudga kelish manbasi, yo'nalishlari, davriyligi, hajmi, o'tish tezligi va hokazolar bilan ajralib turadi. Axborot oqimini boshqarish o'zining tarkibiga oqim yo'nalishini o'zgartirish va uning parametrlarini cheklashni oladi.

Logistik operatsiya. Logistik operatsiya — bu moddiy yoki axborot oqimini qayta ishlashga qaratilgan, ixtisoslashgan amallar yig'indisidir. Moddiy oqimlar ustidan logistik operatsiyalarga omborga joylashtirish, tashish, qadoqlash va boshqalarni misol qilish

mumkin. Axborot oqimlari ustidan logistik operatsiyalar tarkibiga zarur axborotni yig'ish, qayta ishlash va o'tkazish kiradi.

Logistik operatsiyalar ichki va tashqi turlarga ajratiladi. Tashqi logistik operatsiyalarga ta'minot va tayyor mahsulotni sotish sohasidagi barcha harakatlar taalluqli, ichki operatsiyalarga esa — ishlab chiqarishda moddiy oqimni boshqarish kiradi. Bundan tashqari, logistik operatsiya bir tomonlama yoki ikki tomonlama bo'lishi mumkin, bunda mahsulotga egalik qilish huquqi bir yuridik shaxsdan ikkinchisiga o'tadi.

Logistik funksiya. Logistik funksiya — bu logistik tizimning maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan logistik operatsiyalarning yiriklashtirilgan guruhidir. Logistikaning har bir funksiyasi amallarning bir butun (maqsad nuqtayi nazaridan) yig'indisini tashkil etadi.

Logistik funksiyalarning asosiylari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

ishlab chiqarishning moddiy ta'minotini rejalashtirish;
ishlab chiqarish buyurtmalarining bajarilish tartibini boshqarish;
zaxiralarni funksiyalarga bashoratlash va nazorat qilish.

Ishlab chiqarishdagi iste'mol - joriy davrda ishlab chiqarishdagi ehtiyojlarga ijtimoiy mahsulotlarning mehnat vositasi va mehnat predmeti sifatida ishlatilishidir.

Noishlab chiqarish iste'moli — joriy davrda noishlab chiqarish sohasida tashkilot va korxonalarda ijtimoiy mahsulotning shaxsiy iste'mol uchun ishlatilishidir. Logistika chegarasida moddiy oqim harakatining hamma bosqichlarida ishlab chiqarish iste'moli bo'ladi. Faqat oxirgi logistik zanjiri yakunlovchi bosqichda moddiy oqim noishlab chiqarish iste'moli sohasiga tushadi. Logistik zanjir ishlab chiqarish iste'moli bilan ham yakunlanishi mumkin. Masalan, energotashuvchilar harakati — ko'mir oqimi ko'mir konidan ishlab chiqarish iste'moliga issiqlik energiyasi markaziga yoki sanoat korxonasiga tushishi bilan tugallanadi. Ishlab chiqarish iste'moliga taqsimot markazida moddiy oqimga ishlov berish kiradi. Masalan, navlarga ajratish, o'rash, partiyalarga yuklarni bo'lish, saqlash, komplektlash, qadoqlash, ko'chib yurish va hokazo kabi logistik operatsiyalar o'tkaziladi. Bu operatsiyalarning kompleksi muomala

doirasida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi. Moddiy oqim mehnat predmetidir. Mahsulot harakati davrida bu xomashyo materiallari, yarimfabrikat va hokazolar tovar harakati bosqichida tayyor xalq iste'moli tovarlari bo'lishi mumkin.

Moddiy oqim yetkazib beruvchi va iste'molchi ikkita mikrologistik tizimni tashkil qilib, bir-biri bilan logistik kanal yoki logistik taqsimot orqali bog'lanadi.

Logistik kanal (taqsimot kanali) — qisman tartibga solingan ko'pchilik turli xil o'rtada turuvchilar orqali moddiy oqimni aniq ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazadi.

Ko'pchilik o'rtada turuvchilar ma'lum bir paytgacha qisman tartibga solingan bo'ladi, toki moddiy ishtirokchilar tanlangunicha. Bundan keyin logistik kanal logistik zanjirga aylanadi.

Logistik zanjir — bu chiziqli tartibga solingan logistik jarayonda ishtirokchilar ko'pchilik bo'lib, ular tashqi moddiy oqimni bir logistik tizimdan ikkinchisiga yetkazish bo'yicha amallar bajaradilar.

Logistik zanjirni yana logistik bo'g'inlar yig'indisi sifatida turlashtirish mumkin. Bu bo'g'inlar orqali moddiy oqim asosiy oqimlarga ajratilib: material, xomashyo va yarimfabrikatlar yetkazib berish; mahsulot va xomashyoni saqlash; taqsimot) harakatlanadi. Logistik tizimning har xil operatsiya va element darajalarini tahlil qilish asosida u *makrologistika, mezologistika va mikrologistikaga* ajratiladi.

Logistik zanjirning asosiy bo'g'inlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- material yetkazib beruvchilar;
- omborxonalar;
- transport;
- taqsimot markazlari;
- mahsulot ishlab chiqaruvchilar;
- mahsulot iste'molchilari.

Logistik tizim. Logistik tizim u yoki bu logistik funksiyalarni amalga oshiruvchi, teskari aloqaga ega bo'lgan oddiy tizimdan iborat. U, asosan, bir nechta tizim ostilardan tashkil topadi va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega bo'ladi. Logistik tizimlar *mikro, mezo va makrologistik* tizimlarga bo'linadi.

Makrologistik tizim — bu mamlakatning har xil mintaqalarida yoki har xil mamlakatlarda joylashgan sanoat korxonolari va tashkilotlarini, turli xil sohalarda ish yurituvchi vositachi, savdo va transport tashkilotlarini qamrab oluvchi moddiy oqimlarni boshqarish tizimidir. Makrologistik tizim mintaqa, mamlakat yoki mamlakatlar guruhi iqtisodiyotining infrastrukturasi tashkil etadi.

Makrologistika darajasida logistik tizimlarning uchta turi ajratiladi:

— *to'g'ri aloqali* - moddiy oqimni iste'molchigacha yetkazib berish to'g'ri xo'jalik aloqalari asosida amalga oshiriladi;

— *eshelonlashtirilgan* — bunday tizimlarda moddiy oqim ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha yetib borgunicha kamida bitta vositachi korxonadan o'tadi.

— *egiluvchan* — bunday hollarda moddiy oqimni iste'molchigacha yetkazib berish ham to'g'ri aloqalar, ham vositachi korxonalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, ehtiyot qismlari bilan ta'minlash: kam talab etiladigan qismlar to'g'ridan-to'g'ri markaziy omborxonadan qabul qiluvchigacha borib tushiriladi, standart qismlar esa vositachi korxonalar omboridan tushiriladi.

Mezologistika — tarmoqning bir necha korxonasini bir tizimga integratsiya qilish sohasi.

Mikrologistik tizimlar makrologistik tizimlarning strukturaviy tashkil etuvchilari, ichki ishlab chiqaruvchi logistik tizimlarning sinflaridir, ularning tarkibiga bir butun infrastruktura bilan birlashtirilgan ishlab chiqarishning texnologik bog'lovchilari kiradi (ishlab chiqarish va savdo korxonolari, territorial (hududiy) ishlab chiqaruvchi komplekslar).

Mikrologistika — lokal masalalarni alohida bo'g'in va logistika elementlari darajasida, moddiy va axborot oqimlarini ichki ishlab chiqarish darajasida hal etadi. Bu korxonada ichida amalga oshiriladi.

1.2. Logistik operatsiyalarining asosiy bosqichlari va uning mamlakat tashqi savdo aylanmasidagi tutgan o'rni

Logistik operatsiya tushunchasi logistika doirasida jarayonning mustaqil qismini belgilash uchun ishlatiladi, u bitta texnik moslama

yordamida va yoki bitta ish joyida (saralash, tushirish, ochish, omborxonada saqlash, yig'ish, qadoqlash va boshqalar) amalga oshiriladi.

Boshqa ta'rif berilishi mumkin. Ushbu turdagi operatsiyalar ma'lumot yoki material oqimini o'zgartirishga qaratilgan harakatlar majmuasidan boshqa narsa emas. Ushbu sohada material oqimini asosiy konsepsiya deb atash mumkin, bu saqlash, tashish yoki har qanday resurslar, shu jumladan tayyor deb ta'riflanishi mumkin bo'lgan mahsulotlar bilan boshqa harakatlar natijasida bo'lishi mumkin.

Bunday jarayonni boshqarish uchun ma'lumotni tezda qabul qilish, qayta ishlash va kechiktirmasdan uzatish zarur. Asosiy logistika operatsiyalari to'g'ridan-to'g'ri sotib olishni boshqarish, buyurtma berish tartibi, inventarizatsiya, jismoniy tarqatish va ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq. Agar biz asosiy operatsiyalar luqida gapiradigan bo'lsak, unda ularni yetkazib berish (sotib olish), ishlab chiqarish va, albatta, sotish deb tushunish kerak. Boshlang'ich logistik jarayonlarga tushirish, yuklash, tashish, qadoqlash, saqlash, qabul qilish, ombordan chiqish, markalash, saralash va hokazo.

Yordamchi operatsiyalarning ta'rifi qadoqlash, jo'natish, saqlash, quytiladigan chiqindilarni yig'ish, ma'lumotlar va kompyuter segmenti, tovarlarning qaytarilishini va boshqa xizmatlarni ta'minlash bilan shug'ullanishingiz kerak bo'lganda qo'llaniladi.

Quyidagi tavsiflar ushbu toifalarning mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi:

1. Haridlarni tashkil qilish, shuningdek ularni boshqarish. Bu vazifalar kompleksi, shu jumladan resurslarga ehtiyojni rejalashtirish, moddiy resurslarni yetkazib beruvchilarni tanlash, yetkazib berishning maqbul vaqtlari va sotib olishning haqiqiy hajmlarini hisoblash. Ushbu toifaga, shuningdek, yetkazib berish uchun transport turini tanlash, yetkazib berish shaklining o'zi, pudrat ishlarini tashkil etish va boshqalar kiradi.

2. Mijozlarga xizmat ko'rsatishning belgilangan standartlarini saqlab qolish. Bu yerda biz mahsulot sifatini nazorat qilish, sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish va tovarlarni taqsimlash to'g'risida gaplashamiz.

3. Narxlar. Narxlar strategiyasi ishlab chiqarish logistikasi bilan chambarchas bog'liq. Haqiqat shundaki, mahsulotning yakuniy narxini aniqlashdan oldin, kompaniya (shu jumladan tovarlar chiqarilgandan keyin) barcha logistika xarajatlarini hisobga olish kerak.

4. Jismoniy taqsimot. Ushbu logistika operatsiyalari murakkab va tarqatish jarayonining bir qismidir. Ular tayyor mahsulotlarni saqlash va harakatlanishi bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.



Transport va menejment – bu jismoniy xususiyatlarga qarab turkumlanishi mumkin bo'lgan yana bir toifalar guruhi.

U alohida quyidagilar e'tiborga loyiqdir:

1. Buyurtma berish tartibini boshqarish.

Ushbu jarayonning mohiyati buyurtmalarni qabul qilish va qayta ishlash tartibini aniqlashga bog'liq. Bunga oxirgi foydalanuvchi tomonidan buyurtmalarni qabul qilish vaqtini rejalashtirish, logistika vositachilari yoki kompaniyaning o'zi tashkil etgan tarqatish tarmog'ining ishini tashkil etish ham kirishi mumkin.

2. Tashish. Ushbu logistika operatsiyalari moddiy oqimni ta'minlash uchun transportni samarali qidirish va ishlashga yo'naltirilgan. Bunday holda, biz nafaqat transportning o'zi haqida, balki transport, ekspeditsiya, yuklash va tushirish jarayonlarining butun majmuasini anglatadi.

3. Konveyerlardan chiqib ketgan mahsulotlar, shuningdek moddiy resurslarni inventarizatsiyadan boshqarish. Bunday holda, biz etkazib berish, ishlab chiqarish va sotish kabi jarayonlarda zaxiralar darajasini yaratish, nazorat qilish va tartibga solish jarayoni haqida gapiramiz. Ushbu toifadagi logistik operatsiyalar birinchi navbatda vaqt omilini hisobga olishga qaratilgan.

Resurslarni ishlab chiqarishga va tayyor mahsulotni oxirgi iste'molchiga yetkazib berishni samarali tashkil qilmasdan, samaradorlik va daromadning yuqori qismida bo'lish juda qiyin bo'ladi. Qabul

qilingan resurslarni to'g'ri boshqarish korxonada faoliyatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Operatsiyalarni boshqarish asosan ishlab chiqarish protseduralarini boshqarish bo'lgan ushbu jarayon, ko'rib chiqilayotgan mavzuning turli qirralarini yaxshiroq tushunish uchun ham tegishlidir. Aslida, biz mahsulot ishlab chiqarish bosqichidagi asosiy logistika funksiyasi haqida gapiramiz, shuning uchun unga alohida e'tibor qaratiladi. Logistika doirasida tugallanmagan ishlab chiqarish va umumman moddiy oqimlarni samarali boshqarish uchun operativ boshqarish zarur. Volumetrik rejalashtirish, ishlab chiqarish tsiklining davomiyligini qisqartirish, moddiy resurslar sektoridagi mumkin bo'lgan ehtiyojlarni bashorat qilish va h.k. vazifalariga e'tibor beriladi.

Aynan operatsion boshqaruv yordamida siz xarajatlarni malakali ravishda kamaytirishingiz mumkin, shu jumladan logistika doirasida, shuningdek mahsulot sifatini sezilarli darajada yaxshilay olasiz.

Logistika operatsiyalari va ularning turlarini hisobga olgan holda, material oqimining turli bosqichlari bilan bog'liq beshta asosiy funksional yo'nalishni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi:

1. Ishlab chiqarish logistikasi. Ushbu sohadagi vazifalar tovarlarni ishlab chiqarish jarayonida moddiy oqimlarni boshqarish bilan bog'liq.

2. Logistikani sotib olish. Ushbu bosqichda aniq yetkazib beruvchilarni ko'rib chiqish va tanlash, yetkazib berish shartlari buzilgan taqdirda tegishli choralarini ko'rish, shartnomalar tuzish va keyinchalik ularning shartlarining aniq bajarilishini nazorat qilish amalga oshiriladi.

3. Transport operatsiyalari. Bu moddiy oqimning rejalashtirilgan harakati uchun kompaniyani transport bilan ta'minlash jarayoni - o'zini ham, umumiy foydalanishda ham ahamiyat berish lozim.

4. Tarqatish logistikasi. Ushbu bosqichda mahsulotni sotish kabi funktsiya amalga oshirilmoqda. Bunday holda, ushbu turdagi operatsiyalar doirasida ham mikro, ham so'l vazifalar paydo bo'lishi mumkin. Misol tariqasida biz ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarini mintaqa yoki butun mintaqa hududida vakolatli taqsimlashni tashkil etishni keltirishimiz mumkin.

5. Axborot logistikasi. Bu katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda qayta ishlash va tarqatish orqali samarali uchidan oxirigacha materiallarni boshqarish haqida. Bu, ayniqsa, assortimenti katta, qamrov doirasi katta bo'lgan va ko'plab mijozlarga ega bo'lgan yirik korxonalar uchun to'g'ri keladi. Ushbu bosqichga tegishli vazifalarni aniq bajarish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari, masalan, mikroprotsessor texnologiyalari qo'llaniladi.

Shubhasiz, har qanday logistika operatsiyalari bilan bog'liq har bir vazifa korxonaga uchun juda muhimdir, chunki kompaniyaning umumiy faoliyati darajasi uning muvaffaqiyatli bajarilishiga bog'liq.

Moddiy oqim harakatining har qanday bosqichida muvaffaqiyatsizlik moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, logistika har qanday tashkilotning samarali ishining elementlaridan biri, ayniqsa, u katta bo'lsa, deb bemalol ayta olamiz.

1.3 Xalqaro transport tashuvlarida xalqaro yo'nalishlarni tahlil qilish va istiqbollashning vazifalari, usullarining mazmuni

Sanoat, qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda transport moddiy ishlab chiqarish jarayonida markaziy o'rinni egallaydi. Transport iqtisodiy tizimda yuklarni va yo'lovchilarni tashish orqali ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatadi hamda aholining harakatchanligini ta'minlaydi. Transport yangi mahsulotlar yaratmaydi, balki moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari tomonidan yaratilgan mahsulotlarni bir joydan ikkinchi joyga olib boradi va ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantirish hamda qo'shish orqali yangi ishlab chiqarish tizimini davom etishi uchun shart-sharoit hozirlaydi. Xuddi shu xususiyat mahsulotlar qiymatida transport xarajatlari miqdorining ortishiga olib keladi.

Yalpi transport xarajatlarning iste'molchiga kelib tushgan mahsulotning to'la qiymatiga bo'lgan nisbati mahsulot qiymatining transport tarkibiy qismi koeffitsienti deb ataladi. Transport tarkibiy qismi xom-ashyo, yoqilg'i mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan yordamchi materiallarni keltirish uchun ketgan xarajatlardan tarkib topadi hamda uni iste'mol rayonlariga yetkazib berish uchun sarf bo'lgan xarajatlarni xam o'z ichiga oladi. Transportga ketgan xarajatlar miqdori qancha kam bo'lsa, iste'molchiga yetib borgan

muayyan mahsulotning to'la narxi shuncha past bo'ladi. Shuning uchun hududiy faktor, ya'ni ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilinishi va transport-iqtisodiy aloqalarning oqilona bo'lishi yuk tashish uchun ketgan xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

Yuk tashishning hajmi, tarkibi va yo'nalishlari, mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini ko'rsatsa, transport turi aholi va ishlab chiqarishning joylashishini ifodalaydi. Transport tarmoqlarining rivojlanganlik xolati rayonlarning ixtisoslashuviga, ko'jalikni majumali taraqqiy etishiga muayyan sharoit hozirlaydi. Transport hududiy (geografik) mexnat taqsimotini yuzaga kelishining moddiy-texnik asosidir.

Ilmiy-texnika inqilobi ta'sirida transport tizimining rivojlanishi ishlab chiqarish quvvatlari tarkibidagi jiddiy o'zgarishlar, xalqaro tovarlar bozoriga tashiladigan yuklarga ehtiyojning o'sishi va transport xizmati sifatiga yangi talablarning yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Bu yerda keskin raqobat natijasida asosiy kapitalning yangilanish zaruriyati tobora yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. ITIning xalqaro transport bozorida xarakterli natijasi doimiy turli transport turlari raqobatbardoshligining o'sishi, ularning o'zaro aloqadorligi, solohiyatining kuchayishi va integratsion aloqalarning rivojlanishidir.

Transport bozoridagi keskin raqobat kurashi, ayniqsa, quruqlik transport turlari - temir yo'l, avtomobil, quvur transporti va daryo (yuklarni dengiz portiga olib beradigan) yo'nalishlarda kuchlidir. Shuningdek, ITI bilan paralel ravishda transport vositalarining monopollashuvi raqobatni yanada kuchaytirmoqda. Transport tizimi o'zining texnik darajasi, ko'lami, tashkiliy shakli, xalqaro yuk va yo'lovchi tashish sifati bo'yicha mijozlarning yangi talablariga moslashmoqda. Bunda xatto xarajatlarga nisbatan transport xizmati sifati bosh omil rolini o'ynamoqda.

Bu yangi talablar quyidagilar bilan bog'liqdir:

↓ yuk jo'natish ko'larining ortib borishi, ishlab chiqarish texnologik jarayonlaridagi hududiy farqlar va yuk tashishdagi mayda partiyalar, yuk tashishning tabaqalanishini kuchayishiga;

↓ transport xarajatlari o'sishi tufayli yuk tashish samaradorligini ko'tarishga intilish;

↓ iqtisodiy aloqalar tarkibining o'zgarishiga moslashuv zaruriyati;

↓ yo'lovchi va yuk tashishni doimiy va bir maromda ta'minlash;

↓ yuklarni tashishdagi tezkorlik va saqlash darajasining ortishi;

↓ asosiy transport magistrallari (yo'lak) va transport tugunlarida ishlab chiqarish va aholining hududiy to'planishi sharoitida intensiv harakatning o'sib borishida harakat xavfsizligini ta'minlash zaruriyati;

↓ xalqaro yo'lovchi tashish aloqalarida qulayliklariga bo'lgan talabning keskin ortishi;

↓ transport turlari rivojlanishiga bo'lgan ekologik talabni hisobga olish zaruriyati;

↓ transportni energiya talabligini ozaytirish zaruriyati.

Shunday qilib, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi shakllarining rivojlanishi bilan transport xizmat ko'rsatish sifati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yuqoridagi omillar o'z navbatida yuk tashishda avtomobil va havo transportining ustun darajada rivojlanishiga, xalqaro transport kommunikatsiyalarining takomillashuviga, infratuzilmalar tizimining modernizatsiyalashuviga, transport vositalari aylanmasining tezlashuvi, aloqalarda qayta yuklamay aralash yuk tashish intensivligi ortishiga, transport vositalari va xizmatlarning mos ixtisoslashuviga, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yirik ixtisoslashgan transport-taqsimlash markazlarini tashkillanishiga olib kelmoqda.

Transport tizimida yuqoridagi o'zgarishlar asosida yuk tashish tarkibida jiddiy siljishlar iste'molchi tovarlari qiymati tarkibiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Transport tizimi rivojlanish jarayonida 2 bosqich mavjud:

a) kapitalning dastlabki jamg'arilish davri va industrial rivojlanish bosqichida yuk tashish hajmida nisbatan arzon yuklar 30-40% va undan ko'proq bo'lib, transport tarmoqlarining asosiy vazifasi transportda yuk tashish xarajatlari xissasini pasaytirishdan iborat edi. Bunga transport vositalari yuk ko'tarish quvvatlarini oshirish va yuk hajmlarini iqtisod qilish orqali erishildi;

b) postindustrial bosqichga o'tish transport tarmoqlari oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'ydi. Bundan tashqari, transport tizimini tubdan o'zgartirmay uni taqsimlash - logistika tizimiga aylantirmay dunyo xo'jaligining postindustrial bosqichga o'tishi mumkin emas.

Bu jarayon - ishlab chiqishni takomillashtirilishi va tabaqalanishi, xalqaro savdoda tovarlar tarkibi modernizatsiyasi bilan, ya'ni qazib beruvchi tarmoqlar va ishlov beruvchi sanoatning birinchi tarmoqlari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari xissasining qisqarishi bilan bog'liq. Ayni vaqtda yuksak texnologiyaga asoslangan ishlov beruvchi sanoat mahsulotlari qiymati keskin ortib bormoqda, tobora ko'proqaniqlik, ishonchlilik, kompaktilik, xavfsizlik, transport to'rtining istagan joyida ma'lumotlar olish, transport xizmatining javobgarligi va moslanuvchanligi, yuklarni yetkazib borish vaqtini optimallashtirish, jo'natish oraliqlari kabi omillar xatto ishlab chiqarish xarajatlarini xam ikkinchi o'ringa surib qo'ymoqda. Yuk tashishning aniq o'z vaqtida amalga oshirish tamoyili tufayli mijoz talabining ustuvorligi ta'minlanmoqda.

Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilmasidagi tashkiliy o'zgarishlarda doimiy rivojlanib va murakkablashib borayotgan bozor ehtiyojlariga moslanuvchan kichik va o'rta biznesning (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish) roli katta bo'lmoqda. Ana shu o'zgarishlar ta'sirida shakllangan transport-logistika tizimi o'zida intermodel (tarmoqlararo) tizimni ifoda etadi, ya'ni aniq yukni bir yoki bir nechta transport turida eltib beradi. Shuning uchun unchalik katta bo'lmagan partiyada qimmatbaxo yukni oldingi ommaviy yuk tashishda bo'lgani kabi arzon tashib bergan holda yukning butunlikini ta'minlash masalasi ham yuzaga keladi. Xilma-xil yuklarni standartizatsiyalash orqali transport yuklarning yangi tarkibiga moslashdi. 50-60-yillardagi ommaviy yuklarni tashishda yuqori sumara bergan «ko'lamdagi iqtisod» tamoyilini bosh yuklarni tashish standartizatsiyasiga tadbiiq qilish yuk jo'natishlarni yiriklashuvi va oqimlarining barqarorlashuviga olib keldi. Konteynerlardan foydalanish standart transport vositalariga amalda transport jarayonlari uchun yangi talablarni qo'ydi. Shunday qilib, konteynerlar asosida

transport vositalari va jihozlarini standartizatsiyalash butun transport tizimini, qolaversa, dunyo xo'jaligini qayta qurishga olib keldi.

Istiqbolli tashqi bozorlarga va xalqaro dengiz kommunika-tsiyalariga eksport mahsulotlarni tashish uchun O'zbekiston tadbirkorlari, yo'nalishdan qat'iy nazar, kamida ikki mamlakat hududini kesib o'tishlari lozim. Mazkur holat eksport mahsulotlar narxida transport xarajatlari ulushini rivojlangan davlatlarning mazkur ko'rsatkichiga nisbatan 2-3 barobar oshishiga olib keladi. Chegara va bojxona punktlaridan o'tish uchun umumiy tashish vaqtining qariyb 30% sarflanadi. Ko'rsatib o'tilgan holatlar eksportni rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, import qilinayotgan tovarlar, shu jumladan, xomashyo mahsulotlarni qimmatlashuviga olib keladi. Bu esa transport, logistika, yo'l va kommunikatsiya sohalari salohiyatini mustahkamlash sur'ati mamlakat ishlab chiqarish quvvati va eksport salohiyatini yuksalish sur'atidan yuqori bo'lishini talab etadi.

2016 – 2020-yillar mazkur vazifalarni sifatli amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27-sonli farmon va qarorlari qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomil-lashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2019-yil 28-yanvardagi PF-5643-sonli farmoniga muvofiq, Investitsiyalar va tashi savdo vazirligining ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- mahalliy tovarlar va xizmatlarning tashqi bozorlarga chiqishi uchun qulay shartsharoitlarni yaratish;
- samarali transport yo'laklarini shakllantirish;
- eksport mahsulotlarni xorijiy bozorlarga yetkazib berish geografiyasini diversifikatsiya qilish;
- zamonaviy logistika tarmoqlarini rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" gi 2019-yil 10-maydagi 390-sonli Qarorida vazirlikka quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- tashqi savdo infratuzilmasini rivojlantirish;

- tranzit salohiyati darajasini oshirish;
- logistika va transport yo'laklarini takomillashtirish;
- eksport marshrutlarini diversifikatsiya qilish;
- manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda transport, transport aloqalari va xalqaro logistika sohasida tashqi savdo siyosati masulalari bo'yicha takliflar ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;
- xorijiy mamlakatlar bilan transport va logistika yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- transport-kommunikatsiya tizimlarini xalqaro transport kommunikatsiyasiga integratsiyalashtirish;
- yangi transport yo'nalishlarini (yo'laklarini) ko'paytirish chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi hududida tranzit orqali o'tadigan xavfli yuklar, qurolaslahalar, harbiy uskunalar, harbiy mulklar, portlovchi moddalar va mahsulotlarni o'tkazish bo'yicha xulosa berish.

2017-2020-yillar mamlakatning transport va tranzit salohiyatini rivojlantirish, temir yo'l transportini modernizatsiya qilish, havo va avtomobil transportida tashish quvvatini yuksaltirishga qaratilgan inlohotlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasini Tinch okeani va Uzoq Sharq mamlakatlari bilan uzviy bog'lovchi "Xitoy – Markaziy Osiyo – Janubiy Kavkaz – Turkiya" mul'timodal' transport koridori tashkil etildi.

- "O'zbekiston – Qozog'iston – Rossiya – Gruzziya – Turkiya";
- "O'zbekiston – Qozog'iston – Ozarbayjon – Gruzziya – Turkiya";
- "O'zbekiston – Turkmaniston – Ozarbayjon – Gruzziya – Turkiya";
- "O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston" kabi yangi transport koridorlari bo'ylab yuk tashishlar yo'lg a qo'yildi.

Latviya, Litva, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qozog'iston, Ozarbayjon, Gruzziya, Turkiya, Eron va Xitoy dengiz portlaridan foydalanish ishlari jadallashdi.

Tashqi savdo yuklarini, xususan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xorijiy bozorlarga tashishda "Zangori yo'lak", "Bir darcha", "Bir to'xtov" va boshqa mexanizmlar yo'lga qo'yildi.

Mamlakatni iqtisodiy o'sish hududlarida 8 ta zamonaviy xalqaro logistika markazlari tashkil etildi. Xalqaro yuk tashishlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega avtotransport vositalar soni uch barobarga yuksaldi. Bu esa eksportchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ tarkibidagi 5 616 ta usti yopiq vagonlar, 1 055 ta refrijerator va 274 ta termos vagonlar xalqaro yuk tashishlarga jalb etilgan. Eksport mahsulotlarni xorijga tashishda temir yo'l va avtomobil transporti orasida raqobat muhiti kuchaydi.

"Uzbekiston Airways» AJ samolyotlar parki modernizatsiya etilmoqda. Bir qator xalqaro aeroportlarda "Ochiq osmon" va "5 havo erkinligi" joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-maydagi PQ-4337-sonli "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" va 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-sonli "Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlariga muvofiq bir qator mahsulotlarni xorijiy bozorlarga tashish bilan bog'liq xarajatlarini bir qismini Davlat byudjeti hisobidan kompensatsiya qilish bo'yicha tizim shakllantirildi.

Respublika hududlari va tarmoqlari eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi Respublika Komissiyasining 2020-yil 30-iyundagi 3257-sonli "Mahsulotlarni eksport qilishda avtomobil, havo va temir yo'l transportida tashish xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qisman kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga muvofiq 68 turdagi eksport mahsulotlarini temir yo'l, avtomobil va havo transportida tashish xarajatlarini 50%gacha kompensatsiya qilish tartibi tasdiqlanidi.

Tayanch iboralar: logistika, logistik boshqaruv, transport logistikasi, konsepsiya, logistik tamoyil, logistik tizim, logistik zanjir,

logistik tizimlar, oqim elementlari, moddiy oqim, axborat oqimi, logistik operatsiya, logistik funktsiya.

?

Nazorat savollari

1. Logistika ta'riflar mohiyatini tushuntirib bering.
2. Logistika tushunchasining tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
3. O'zbekiston tarixida logistikaning tutgan o'rni qanday?
4. Hozirgi zamonda logistikaning tutgan o'rnini izohlab bering.
5. Bozor munosabatlarining rivojlanishiga logistikaning ta'siri qanday?
6. O'zbekiston iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tish sharoitida logistikaning tutgan o'rnini aniqlovchi omillar nimalardan iborat?
7. Logistik funksiyalarning tasnifi nimalardan iborat?
8. Logistikaning asosiy maqsadini izohlab bering.
9. Logistikaning asosi nimalarda o'z aksini topadi?
Ushbu strategiya Trans-Yevropa transport tarmog'i (TEN) deb nomlangan va 1996-yil iyulda tasdiqlangan "Trans-Yevropa tarmog'ini yaratishning qo'shma asosiy yo'nalishlari" konsepsiyasiga asoslangan edi. Konsepsiya turli xil transport turlarini multimodal transport tarmog'iga birlashtirish tamoyilini belgilaydi. TENning asosiy yo'nalishlarining muhim sharti - bu tarmoqni Sharqqa kengaytirish va uning uchinchi mamlakatlarning transport tarmoqlari bilan aloqasi. TENni Sharqqa kengaytirish muddati 2015-yilgacha belgilanadi.

2001-yilda jamoat transportini tadqiq qilish dasturlari sohasidagi hamkorlik va muvofiqlashtirishni yaxshilash maqsadida transport tadqiqotlari bo'yicha Yevropa platformasi (EPTR) tashkil etildi. Transport tadqiqotlari bo'yicha Yevropa platformasi haridorga eng yaxshi xizmatni taklif qilish uchun har bir transport turining o'ziga xos kuchli tomonlarini birlashtirishda harakatni tashkillashtiruvchilarning rolini oshiradi.

2003-yilda Yevropa Komissiyasi to'rtta ish yo'nalishi bo'yicha Harakatlar rejasini ishlab chiqdi:

- yo'l harakati xavfsizligi;
- yuk tashish logistikasi;

- Yevropada transport siyosatini nazorat qilish; - aqlli transport tizimlari. Yevropa Ittifoqining standart transport - logistika kompleksi tomonidan berilgan asosiy vazifalar sifatida quyidagilar belgilandi:

- loyihani amalga oshirishga yirik xususiy investitsiyalarni jalb qilish;

- yuqori texnologiyali sanoat va ombor ob'ektlari va yo'l bo'yidagi xizmat ko'rsatishning murakkab infratuzilmasini qurish;

- muhandislik, texnik, aloqa va axborot ta'minoti zamonaviy va samarali tizimlarini yaratish;

- yuklarni kuzatish, avtotransport vositalarining yuklanishini optimallashtirish, axborot almashish, buxgalteriya hisobi va hujjat aylanishini xalqaro standartlar va me'yorlardan foydalanishga asoslangan zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish;

- tovar va transport vositalarini bojxona tekshiruv, rasmiylashtirish va nazorat qilish tartibini takomillashtirish, ularni jahon amaliyotiga moslashtirish;

- yuk tashish jarayonini va shartnoma logistikasini tashkil qilish uchun axborot tarmog'i va terminal texnologiyalaridan foydalangan holda tovarlarni yetkazib berishga ixtisoslashgan yirik transport va ekspeditorlik kompaniyalarini jalb qilish;

- yirik chakana tuzilmalar va tarmoqlarni rivojlantirish uchun samarali tarqatish tarmog'ini, shuningdek, xususiy tadbirkorlik tuzilmalarining savdosi va sotib olish biznesini jonlantirish va qonuniylashtirishga mo'ljallangan import tovarlarini ulgurji va kichik ulgurji sotish do'konlari-omborlarini yaratish.

Harakatlar rejasida 3PL - 4PL logistika markazlarini yaratishda milliy operatorlar e'tiborga olishlari kerak bo'lgan strategik omillar ham aniqlandi.

Logistika xizmati operatorlarining tasnifi:

- 1PL (First Party Logistics) - avtonom logistika, barcha operatsiyalarni yuk egasining o'zi bajaradi;

- 2PL (Second Party Logistics) - omborlarni tashish va boshqarish bo'yicha an'anaviy xizmatlarni ko'rsatish;

- 3PL (Uchinchi tomon logistikasi) - nonstandart xizmatlarning standart ro'yxatini kengaytirish (omborxonalar, qayta yuklash, yuk

tashish, qo'shimcha qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan qo'shimcha xizmatlar), subpudratchilardan foydalanish; 4PL (Fourth Party Logistics) - ta'minot zanjiri bilan shug'ullanuvchi barcha kompaniyalarning integratsiyasi;

- 5PL (Beshinchi partiya logistikasi) - elektron ommaviy axborot vositalari yordamida tovar etkazib berishning yagona zanjirini tashkil etuvchi barcha komponentlarni boshqarish.

Shuning uchun "Harakatlar rejasini" da yaratilgan transport - logistika markazlari (TLC) bajaradigan funksiyalar majmuasi ularni muvofiq milliy transport va logistika tuzumlarini (klasterlari) sifatida, balki ularni sementlashning o'ziga xos asosi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. tashish jarayoni, harakatlanuvchi tarkib va infratuzilma muvofiq mamlakatning va Yevropa Ittifoqining yagona transport tizimida, balki kelajakda jahon bozoriga.

Yana bir muhim nuqta - TLC ning asosiy bo'g'ini - ombor binolarining tasnifi. Omborlar Yevropa Ittifoqi standartlariga muvofiq A, B, C va D toifalarga bo'linadi.

"A" toifali ombor-bu zamonaviy texnologiya va yuqori sifatli materiallardan foydalangan holda qurilgan zamonaviy bir qavatli omborxonalar binosi. 10 m dan baland shiftlar, ko'p darajali tokchalar uskunalarini o'rnatishga imkon beradi. Changga qarshi qoplamali tekis pol. Sozlanishi harorat rejimi. Eshiklardagi termal pardalar. Shlangi rampali, balandligi sozlanishi dosk tipidagi avtomatik eshiklar. Markaziy konditsioner yoki majburiy shamollatish. Xavfsizlik signalizatsiya tizimi va video kuzatuv. Omborda ofis maydoni. Og'ir yuk poyezdlarini to'xtash va manevr qilish uchun yetarli maydon. Yaxshi kirishni ta'minlaydigan yirik magistral yo'llarda joylashgan joy. Mijozlar tovarlari bo'yicha har qanday turdagi hisobotlarni tuzish va qoldiqlarni inventarizatsiya qilish, omborga kiruvchi tovarlarning taqsimlanishini optimallashtirish va transport vositalarining harakatini tartibga solish imkonini beradigan omborlarni boshqarish tizimi. Logistika operatori hisobidan yuklarni 100% sug'urta qilish.

"B" sinfidagi ombor- kapital bir yoki ko'p qavatli bino. Shift balandligi 4,5 dan 8 m gacha Zamin - asfalt yoki qoplamagan beton.

Yong'in signalizatsiyasi va gidrantli yong'inga qarshi tizim. Avtotransport vositalarini tushirish uchun rampa. Omborda ofis maydoni. MGTS telefon liniyalari. Hududni himoya qilish.

"S" sinfidagi ombor - kapital ishlab chiqarish inshooti yoki izolyatsiyalangan angarlar. Shift balandligi 3,5 dan 18 m gacha Zamin - asfalt yoki beton plitkalar. Darvoza nol belgisida (mashina ichkariga kiradi).

"D" sinfidagi ombor - podvallar yoki fuqaro mudofaasi inshootlari, isitilmaydigan ishlab chiqarish binolari yoki angarlar.

Bugungi kunda faqat xorijiy ixtisoslashgan kompaniyalar bunday tajribaga ega, ular ob'yektlarni, xususan, nemislarni samarali lokalizatsiya qilish texnikasi va tajribasiga ega.

Germaniyada transport logistika markazlari (hozirgi vaqtda 2010-yilgacha ularni yaratish bosh rejasida ko'zda tutilgan 33 tadan 29 tasi) asosan mavjud temir yo'l liniyalari va almashinuvlar asosida tashkil etilgan. Ularning aksariyati avtomobil va temir yo'l transportidan parallel foydalanish uchun mo'ljallangan, shuningdek, uch modulli logistika markazlari mavjud. Germaniyada logistika bilan bog'liq tadbirlarda 4,5 millionga yaqin kishi ishlaydi.

Logistika markazlarini qurish uchun nemis modeli bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Birinchidan, bu federal qonunlar va federal shtatlar qonunlariga asoslangan barcha darajadagi kuchli davlat yordami. Federal byudjet Deutsche Bahn AG (Germaniya temir yo'llari) orqali investitsiyalarni moliyalashtirishda ishtirok etadi, federal shtatlar byudjetiga subsidiyalar ajratish, shuningdek, aniq investitsiyalar uchun maqsadli grantlar va kreditlar ajratish keng qo'llaniladi. Logistika markazlariga investitsiyalarni moliyaviy qo'llab - quvvatlash federal shtatlar va mahalliy hukumatlar tomonidan amalga oshiriladi.

Germaniya modelidagi investitsiya mablag'larining manbalari ham aniq belgilangan:

- logistika operatorlariga infratuzilmani taqdim etishni istagan investorlar;
- transport kompaniyalari;
- xususiy kapital bilan uyushmalar tuzuvchi sub'yektlar;

- byudjet mablag'lari va federal erlarning maqsadli jamg'armalari, infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va federal jamg'armalar;

- shahar va viloyatlarga subsidiyalar;
- Yevropa Ittifoqining grantlari va dasturlari;
- bank kreditlari.

Logistika markazini yaratishni boshlagan kompaniyaning vazifalari qat'iy belgilangan. Bu logistika markazi va hujjatlarini yaratish, investorlar va moliyaviy resurslarni jalb qilish, yer muhojirlarini sotib olish va rivojlantirish, logistika markazi qurilishini nazorat qilish dasturini ishlab chiqish.

Davlat ishtirokida tashkil etilgan logistika markazlari loyihada ishtirok etuvchi turli kompaniyalar - investorlar va investitsiya konsortiumlari, rivojlanish kompaniyalari, shahar / munitsipalitet, uyushmalar va uyushmalar tomonidan tashkil etiladigan nazorat organlari orqali boshqariladi.

Shunday qilib, Germaniya tajribasiga asoslanib, TLC dasturini amalga oshirishning loyihadan oldingi bosqichida hokimiyat organlarining harakatlarining umumiy sxemasi quyidagicha edi. Transport federal vazirligi yuk oqimi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi tahlili asosida yirik terminal komplekslarining eng qulay joylarini aniqlaydi. Tavsiyalar Lander hukumatlariga yuboriladi. Agar ular loyihani amalga oshirishda ishtirok etishga tayyor ekanliklarini bildirsalar, federal hukumat loyihalash ishlari va maydonlarni tayyorlash xarajatlarining 10-15% miqdorida "start-up" mablag'larini taqdim etdi. Yer hukumati tegishli shahar hokimiyati bilan muzokaralar olib bormoqda (yoki bir nechta shaharlar, agar terminalning afzal ko'rilgan joyi juda keng bo'lsa). Loyihani amalga oshirishga tayyor bo'lgan shahar hokimiyati qisman subsidiya oladi. Yer byudjeti va o'z navbatida, terminal uchun yer sotib olish va loyihada ishtirok etishi mumkin bo'lgan tadbirkorlarni rivojlantirish masalalarini hal qiladi.

3.2. "Angren" logistika markazi va uning asosiy yo'nalishlari. "Angren" logistika markazida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar



"Angren logistika" aksiyadorlik jamiyati tashkil etilishi va kundalik moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilovchi markazi asosiy xuquqiy hujjat - uning Nizomi hisoblanadi. Mazkur Nizomga ko'ra jamiyat tuzit to'g'risidagi ta'sis shartnomasida nomlari keltirilgan ta'sischi-aksiyadorlar (bundan buyon Ta'sischilar deb ataladi) ta'sis yig'ilishining karori bilan yopiq; aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilgan "Angren Logistika Markazi" yopiq aksiyadorlik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi.

"Angren logistika markazi" yopiq aksiyadorlik jamiyati yuridik shaxslar (ular to'g'risidama'lumotlar 2009-yil 12-avgustdan ta'sis shartnomasida keltirilgan) tomonidan tuzilgan bo'lib, ushbu shaxslar tomonidan birgalikda xo'jalik faoliyati (birtish, foyda olish maqsadida jamiyat manfaatlarini qondirish, Jamiyat faoliyatining mazmuni, asosiy vazifalari va maqsadlarida nazarda tutilgan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish birlashmasidir.

Quyidagi tashkilotlar "Angren logistika markazi" aksiyadorlik jamiyatining ta'sischilari hisoblanadi:

- "O'zbekiston temir yo'llari" Davlat aksionerlik temir yo'l kompaniyasi;

- "O'zavtosanoat";

- "O'z kimyosanoat" DAK;

- "O'z neftgaz" MXK;

- "O'z qurilish-materyiallari" AK;

- "Yog'moy va oziq-ovqat sanoati" uyushmasi.

"Angren logistika markazi" aksiyadorlik jamiyati faoliyatining asosiy maqsadlari, yo'nalishlari va mazmuni quyidagilardan iborat. Iste'mol talabi va bozordagi vaziyatning o'zgarishiga tezkor

munosabat bildirish yo'li bilan xalq iste'moli va transport, yuklarni oshirish- ortish va omborlarda saqlash xizmatlarini ko'rsatish maqsadlarga mo'ljallangan xizmatlarni amalga oshirish va xizmat ko'rsatib foyda olish jamiyat faoliyatining maqsadidir.

Jamiyat faoliyatining mazmuni marketing tadbikotlarini amalga oshirish, tijorat faoliyati, moliya va boshkaruv masalalam buyicha muvohabat berishdan iboratdir. Jamiyat quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- o'rnatilgan tartibda o'zaro manfaatli tashqi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish, qo'shma korxonalarni tuzish haqida qaror qabul qilish, shu jumladan, xorijiy hamkorlar bilan ham:

- transport xizmatlari;

- temir yo'l va avtomobil transportlari orqali yuklarni tashishni tashkil etish;

- transport vositalari, mexanizmlar va omborlarni ta'mirlash, ularga texnik xizmat ko'rsatish hamda ijaraga berish;

- marketing, agentlik va boshka xizmatlar ko'rsatish;

- lizing asosida ishlab chiqarish faoliyati; sarmoya kiritish faoliyati;

- aholiga pullik xizmat ko'rsatish: avtotransport va servis xizmati: tijorat va savdo;

- tijorat do'konlarini tashkil qilish va ulardan foydalanish;

- ko'rgazmalar, kim oshdi savdolari, taqdimot marosimlari va reklama kompaniyalarini tashkil qilish va o'tkazish;

- umumiy ovqatlanish tarmoqlari, kafe, bar, restoran, pishyehiyalarni tashkil qilish; tashqi iqtisodiy faoliyat;

- nizom jam'armasiga kiritgan xissalari miqdorida ishtirokchilarning moliyaviy resurslarini ijmlash, ulardan samarali foydalanish strategiyasi va maqbul shartlarini belgilash;

- aksiyalar va qimmatli qog'ozlarni chiqarish, ularni ta'sischilar orasida taqsimlash;

- jamiyat sho'ba korxonalari faoliyatini investisiya, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiytashkiliy, huquqiy va kadrlar jixatidan ta'minlash;

- jamiyat tarkibiy bo'linmalariga faoliyatning yangi turlarini o'zlashtirishda qayta tiklash, texnikaviy qayta qurollanish, kapital qurilish, yangi bo'linmalarni tuzishda moliyaviy yordam ko'rsatish;
 - jamiyat tarkibiy bo'linmalari rivojlanishining strategik dasturlari muvozanatini, bozor konyunkturasini o'rganish va taxlil qilish, marketing faoliyatini amalga oshirish;
 - vositachilik, injiniring, konsalting, bank, o'kuv va marketing xizmatlarining yangi turlarini ko'rsatish uchun jamiyat tarkibiga kiruvchi tarkibiy bo'linmalarning jamlanma investisiya salohiyatini ruyobga chiqarish;
 - shartnoma va kontraktlarning loyihalarini ishlab chiqish va tayyorlash;
 - ularni ishtirokchilar bilan muvofiqlashtirish, tuzilishi va bajarilishi ustidan nazorat qilish;
 - jamiyat va uning ta'assischilari, ishtirokchi aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab mamlakat ichida va xorijda ko'chadigan va ko'chmas mulk bilan bog'liq, istalgan operatsiyalarni jumladan, ham ishtirokchilar, ham uchinchi shaxslar bilan qarz va kreditlarolish va berish operatsiyalarini amalga oshirish;
 - to'lovlarga, jumladan, mulkka kafolat berish, bunda kreditorlar va aksiyadorlar oldidagi majburiyatlarning birinchi navbatda bajarilishini kafolatlash;
 - kapitalning bir sohadan ikkinchi sohaga oqib o'tishini yengillashtirish;
 - tarkibiy tuzilmalarning barqaror daromadliligi ta'minlash bo'yicha shart-sharoit yaratadi;
 - tarkibiy bo'linmalar faoliyatida xarajatlar kamayishini, rentabellik oshirishini hamda ichki va tashqi bozorda xizmatlarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi; tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish; yangi xalqaro iqtisodiy aloqalarni amalga oshiradi;
- Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda faoliyatning qonunchilikda taqiqlanmagan va ta'asis hujjatlarida ko'rsatilmagan istalgan turi bilan shug'ullanishga haqli. Maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qiladigan barcha faoliyat turlari qonunda qayd etilgan tartibda litsenziya olingandan so'ng amalga oshiriladi. "Angren logistika

markazi" yopiq aksiyadorlik jamiyatining nizom jamg'armasi fonda, har birining qiymati 1 000 000 (bir million) so'm bo'lgan 600 (olti yuz) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalarning nominal qiymatidan tashkil topadi. Jamiyat nizom jamgarmasi 600 000 000 (olti yuz million) so'mni tashkil etadi va jamiyat ta'assischilari o'rtasida quyidagicha taqsimlangan:

No	Ta'assischining nomi	Taqsimlangan aksiyalar nomi (dona)	Nizom jamg'arnasidagi uushi (foiz)
1	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ	100	16.666
2	"O'zavtosanoat" AK	100	16.666
3	"O'zkinvosanoat" DAK	100	16.666
4	"O'zneftegaz" MXK	100	16.666
5	"O'zqurilishmateryallari" AK	100	16.666
6	"Yog'-moy va oziq-ovqat sanoati uyushmasi"	100	16.666

Angren logistika markazi yopiq aksiyadorlik jamiyatining kengashi va ijroiya organi faoliyati quyidagicha amalga oshiriladi. Jamiyat Kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy pahlplikni amalga oshiradi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishning qaroriga binoan jamiyat kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davrda badal to'lanishi va kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq korajatlari qoplanishi mumkin. Bunday badal va to'lovlarning miqdori aksiyadorlar umumiy yig'ilishi karori bilan belgilab qo'yiladi.

Jamiyat Kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:


- jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- jamiyat aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishinsh kun tartibini va uni o'tkazish sanasini tasdiqlash;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida xabardor qilish uchun umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxati, tuziladigan sanani belgilash;
- jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi vazifasini bajarish;
- jamiyat ijroiya organini tuzish (saylash, tayinlash, yollash va hokazo), uning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish;
- jamiyat tomonidan obligatsiyalarni va emissiya qilinadigan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish;
- mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash;
- jamiyat tomonidan joylashtirilgan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni olish;
- jamiyat taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensasiya miqdori yuzasida tavsiyalar berish;
- aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va ularni to'lash tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
- jamiyatning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;
- mazkur nizomga muvofiq kengash vakolatlariga kiritilgan jamiyat ichki hujjatlarini tasdiqlash;
- jamiyatning vakolatxonalarini ochish hamda filiallarini tashkil etish;
- "Aksiyadorlik" jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunda nazarda manfaatdorlik bo'ladigan bitimlarni tuzish; aksiyadorlik jamiyatining boshqa xo'jalik jamiyatlaridagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni tuzish;
- mazkur Nizom va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa masalalar.

Jamiyat kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar, hal qilish uchun jamiyat ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas. Jamiyat kengashi a'zolari aksiyadorlar umumiy yig'ilihi tomonidan nizomda nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha muddatga saylanadi. Jamiyat kengashi tarkibiga saylangan shaxslarining qayta saylanishlari cheklanmaydi. Jamiyat kengashi a'zosi faqat jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Jamiyat kengashi a'zosi jamiyat aksiyadori bo'lmasligi mumkin. Jamiyat ijroiya organining a'zolari jamiyat kengashiga saylanishlari mumkin

emas. Jamiyat kengashining miqdoriy tarkibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan belgilab qo'yiladi. Jamiyat kengashining raisi kengash a'zolari tarkibidan kengash a'zolari umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Jamiyat kengashining faoliyat tartibi "Kengash to'g'risida"gi aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlanadigan nizom bilan belgilanadi.

Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik kollegial ijroiya organi bo'lgan jamiyat boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Ijroiya organlar jamiyat kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga hisobot beradi. Jamiyat ijroiya organining vakolatlariga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlariga yoki jamiyat kengashining vakolatlariga aloqador masalalar bundan mustasno. Jamiyat ijroiya organi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi. Jamiyat boshqaruvi raisi jamiyat nomida ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan, uning manfaatlarini ifoda etadi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, shartlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi. Jamiyat ijroiya organlarini tashkil etish hamda ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, agar jamiyat nizomida ushbu masalalarni hal etish jamiyat kengashining vakolatlariga kiritilmagan bo'lsa, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga binoan amalga oshiriladi. Jamiyatning boshqaruvi raisi, jamiyat boshqaruvi a'zolarining jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirishga doir huquqlari va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida hamda ularning har biri jamiyat bilan tuzadigan shartnomada belgilanadi. Shartnomani jamiyat nomidan kengash raisi imzolaydi. Jamiyat boshqaruvi jamiyat Nizomi, shuningdek, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tasdiqlanadigan «Jamiyat boshqaruvi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq faoliyat yuritadi.



3.1-rasm. Angren logistika markazida transport turlari hamkorligi.

Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 5-avgustdagi Qaroriga ko'ra markazning ustav fondida xorijiy investitsiya ulushi shu yilning 31 dekabriga qadar kamida 15%ni tashkil etishi lozim.

Toshkent, 3 okt – Sputnik. Dastlab ikki yil ichida “Angren” logistika markazi aksiyalari davlat ulushining 49%ni xorijiy investorlarga sotilishi mo'ljallangandi, deb xabar beradi “nuz.uz.”

Avtomobil va temir yo'l yuk tashuvlari xizmatini ko'rsatishga ixtisoslashgan “Angren” logistika markazi 2010-yilda Toshkent viloyatidagi temir yo'l stantsiyasi negizida tashkil etilgan.

Markazning asosiy vazifasi O'zbekistonning barcha hududidan temir yo'l orqali kirib keladigan yuklarni qabul qilish va qayta ishlash hamda yuklarni yil davomida kafolatlangan holda “Qamchiq” dovoni orqali Farg'ona vodiysi viloyatlariga yuborishdir.

Logistika markazining yuk amaliyotlari hajmi 4 million tonnani tashkil etadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, tranzit-yuk terminali maydoni 8,5 gektarga yaqin, avtomobil parkida esa 340 dan ortiq transport texnikasi mavjud. Asosiy tashiladigan yuklar sirasiga “GM Uzbekistan” avtomobillari, avtomobil ehtiyot qismlari, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlari, kimyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari kiradi.

Ma'lumki, qulay investitsiya muhitini yaratish, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va ilgor texnologiyalarni iqtisodiyotning ustuvor va istiqbolli tarmoqlariga jalb qilish, xorijiy sheriklar bilan o'zaro foydali savdo-iqtisodiy aloqalarni o'rnatish kabilar O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri

hisoblanadi. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi eng avvalo, mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash va jahon bozorida ularning raqobatdoshligini oshirish imkonini beradi. O'zbekiston Prezidentining “Angren” maxsus industrial zonasini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq, ushbu hududda raqobatbardosh mahsulot tayyorlash bo'yicha yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun investitsiyalar jalb etish, avvalambor, investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish uning asosiy vazifalari etib belgilagan.

“Angren” maxsus industrial zonaning umumiy maydoni 14,5 ming ga bo'lgan va Angren shahri, Ohangaron tumani va poytaxt viloyatining ushbu aholi punktlari oralig'idagi hududda rivojlanib kelmoqda. U yerda “Angren” multi modal logistika markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Maxsus zonada elektr texnika, mashinasozlik, kimyo va neft kimyosi, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati va meva-sabzavot mahsulotlariga chuqur ishlov berish, zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi bir qator korxonalar joylashadi.

?

Nazorat savollari

1. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarda logistik kompaniyalar tashkil etish tajribasilari haqida gapiring.
2. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning asosiy tendensiyalari nimalardan iborat?
3. Yevrologik tizim nima?
4. “Angren” logistika markazi va uning asosiy yo'nalishlarini tuzohlang?
5. “Angren” logistika markazida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar qaysilar?

IV BOB. RESPUBLIKAMIZ TASHQI SAVDO SALOHİYATINI OSHIRISHDA EIX LAR VA LOGISTIK MARKAZLARNING AHAMIYATI

4.1. Tashqi savdo tushunchasi. O'zbekiston Respublikasida EIX larni tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar. Erkin iqtisodiy hududlarning afzalliklari.

4.2. "Navoiy" EIX ni tashkil etish va boshqarish. "Navoiy" intermodal logistika markazi. "Navoiy" xalqaro aeroporti.

4.3. Ko'p tarmoqli logistik markazlar tashkil etishning jahon tajribasi va uni respublikamizga qo'llash.

4.1. Tashqi savdo tushunchasi. O'zbekiston Respublikasida EIX larni tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar. Erkin iqtisodiy hududlarning afzalliklari

Tashqi savdo — bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan savdosi. Mamlakatdan tovarlar chiqarish (eksport) va mamlakatga tovarlar kiritish (import)ni tashkil topadi. Eksport va import yig'indisi mamlakatning Tashqi savdo aylanmasini tashkil etadi. Mamlakatlar o'rtasida savdosotiqning rivojlanishi ikki tomonlama foyda olish imkonini beradi. Tashqi savdo mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarning eng oddiy shaklidir. Kds. Misr, Yunoniston va Rim quldorlik tuzumi davridayoq boshqa mamlakatlar bilan ikki tomonlama savdo-sotiq munosabatlarini amalga oshirgan. Insoniyat tarixida birinchi marta Sharq va G'arb dunyosini bir-biri bilan bog'lagan Buyuk Ipak puli kitalararo savdoni yo'lga qo'ydi. Bu yo'l hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan shaharlarda savdosotiqning keng kuloch yoyishiga olib kelgan edi.⁵

Bugungi kunda mamlakatimizda 14 ta erkin iqtisodiy zona mavjud bo'lib, ulardan ayrimlarining faoliyati ancha jadallashgan.

Muhsan, "Navoiy", "Angren", "Jizzax", "Urgut", "G'ijduvon", "Bo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 400 million dollarga teng 62 loyiha amaliyotga tatbiq etilgan. Natijada, 4 ming 600 dan ortiq ish o'rni yaratilgan. Shuningdek, "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryofarm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm", "Parkent-farm" singari farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan 7 yangi erkin iqtisodiy zonalarini o'z ichiga olgan bo'yicha ham barcha chora-tadbirlar ko'rilayapti. Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, xorijdan yuqori texnologik uskunalar harid qilish uchun O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'i hisobidan 100 million \$ miqdorida chet el valyutasidagi kredit liniyasi ochilgan. Bundan tashqari, kichik sanoat zonalaridagi direksiyalar kredit olish va bank xizmatlaridan foydalanishda har bir zonaga birlashtirilgan tijorat banklari bilan hamkorlikda ish olib borayotganligi ham muammolarni bartaraf etishda ayni muddao bo'lmoqda. Bozor talablari va import nomenklaturasini o'rganish asosida tadbirkorlar uchun takliflar, istiqbolli loyihalar ro'yxati shukllantirilgan. Imtiyozlardan yana biri shuki, kichik sanoat zonasida ishlaydigan subyektlar 2 yil barcha soliqlardan ozod etilgan. Shuningdek, bo'sh turgan yoki samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish binolaridan unumli foydalanish, yangi korxonalar tashkil etishni rag'batlantirish maqsadida mazkur binolar negizida kichik sanoat zonalarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytgacha mamlakatimizda ularning soni 96 taga yetdi.

Hozirgacha ushbu zonalarda umumiy qiymati 535 milliard so'mga teng 1021 loyiha amalga oshirilgan, 9 ming 600 dan ziyod ish o'rni yaratilgan. Loyihalar doirasida nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham haridorgir bo'lgan yengil sanoat, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, elektr texnikasi buyumlari, zamonaviy qurilish materiallari, mebel va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari, kelgusida 248 loyihani amaliyotga tatbiq etilishi natijasida 11 ming yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilmoqda.

Erkin iqtisodiy zonalaridagi muammolar va ularni qanday bartaraf etish yo'llari.

⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi

Lekin shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: mazkur yo'nalishda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanilyaptimi? Agar kichik sanoat zonalarining sarmoyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishdagi o'rnini tahlil qiladigan bo'lsak, ularda hamon tashabbuskorlik yetishmasligi, faoliyatni rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish darajasi sustligi ko'zga tashlanadi.

Masalan, mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan loyihalarni ko'rib chiqish hamda muvofiqlashtirish jarayoni hamon murakkabligicha qolib, rasmiy xarakter kasb etmoqda. Afsuski, erkin iqtisodiy zona qatnashchilariga yer uchastkalari ajratish masalalarini hal etishda hanuz byurokratizm asoratlari saqlanib qolmoqda.

Ayniqsa, "Urgut", "Qo'qon", "G'ijduvon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalar, shuningdek, farmatsevtika yo'nalishidagi erkin iqtisodiy hududlarda yangi korxonalar tashkil etish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish ishlari sust. Elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv va boshqa kommunikatsiya tarmoqlari bilan barqaror ta'minlashda ham muammolar kuzatilmoqda.

Vaholanki, mazkur hududlarda investor va tadbirkorlarga yanada keng imkoniyatlar yaratishga oid kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishni davr taqozo qilmoqda. Avvalo, ushbu zonalar faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish, zarur bo'lsa davr talablariga moslashtirish, barcha uchun ochiq va tushunarli mexanizm yaratish zarur.

Qolaversa, yer uchastkalari, bo'sh turgan binolarni ajratish tartibini ham soddalashtirish lozim. Masalan, erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshiriladigan loyihalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ma'muriy kengash tomonidan ko'rib chiqiladi. Shu paytgacha bu kengash 17 vazirlik va idoradan iborat edi. Prezident ko'rsatmasiga muvofiq, ularning soni 4 ta etib belgilandi. Shu bilan birga, yangi tizim — hududiy komissiyalar tashkil etilib, ularning loyihalarni ko'rib chiqish va ruxsat berish huquqlari kengaytirildi.

Bundan tashqari, hukumat tomonidan imtiyozlar yaratiladi. Iqtisodiy zonalarda joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish mezonini qayta ko'rib chiqilib, ishtirokchilarga kredit ajratishni

vositalash hamda muhandislik ta'minoti vositalari bilan ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinadi.

Boshqa qator muammolar ham mavjudki, ular ishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Masalan, ayrim erkin iqtisodiy zonalarda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish va ishlab chiqarish infratuzilma ob'yektlarini qurish bilan bog'liq masalalar haligacha oxiriga yetkazilmagan. Bu investorlarni jalb qilishda qiyinchiliklar tug'diryapti. Erkin iqtisodiy zonalar direktorialari tomonidan tijorat banklariga yangi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish yuzasidan taklif kiritish bo'yicha yetarlicha tashabbus ko'rsatilmayapti.

Ba'zi viloyatlar hokimliklari tomonidan erkin iqtisodiy zonalarda loyihalar aniq hisobkitoblarsiz joylashtirilishi oqibatida ayrim faoliyat turlari uchun sun'iy imtiyoz berilishiga va bu, o'z navbatida, bozordagi raqobat muhitining buzilishiga olib kelmoqda.

Shu bois, mavjud erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat, shuningdek, farmatsevtika zonalarida faoliyat yuritayotgan, eksportga muhsulot chiqarayotgan, innovatsion, yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni tashkil qilgan biznes subyektlari va tadbirkorlarga berilayotgan qo'shimcha imkoniyatlar, imtiyoz va preferensiyalarning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash ham muammolardan biridir.

Ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakat investitsiya salohiyatini jahon biznes hamjamiyatiga to'la namoyon etishga qaratilgan, sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini shakllantirishda kompleks yondashuvlarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratilishi zarur. Shu bilan birga, "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonunni bugungi kun talablari asosida qayta ko'rib chiqish, uni davr ruhiga uyg'un holda yanada takomillashtirish lozim.

4.2. "Navoiy" EIX ni tashkil etish va boshqarish. "Navoiy" intermodal logistika markazi. "Navoiy" xalqaro aeroporti

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimovning 2008-yil 2-dekabrda PF-4059-sonli "Navoiy" erkin industrial-

iqtisodiy zona tashkil qilish to'g'risidagi farmoniga asosan tashkil qilindi. "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi 500 gektarli yer uchastkasida joylashgan. 2016-yil holatiga ko'ra Navoiy viloyatida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi zamonaviy korxonalar soni 55 tani tashkil etadi. Shundan, Navoiy shahrida 18 ta, Zarafshon shahrida 4 ta, Karmana tumanida 23 ta, shundan "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi hududida 18 ta, Konimex, Navbahor va Qiziltepa tumanlarida 2 ta, Nurota, Tomdi, Uchquduq va Xatirchi tumanlarida 1 tadan xorijiy investitsiya ishtirokidagi zamonaviy korxonalar faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-may kuni imzolagan farmonida Navoiy viloyati 2030-yil 1-yanvarga qadar innovatsion, yuqori texnologiyali, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilandi. EIZ amal qilish muddati uzaytirilishi mumkin.

Navoiy viloyatini EIZ sifatida rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida innovatsion faoliyatni rivojlantirish, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish, kimyo va qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha klasterlar tashkil etish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini rivojlantirish va boshqalar keltirib o'tilgan.

"Navoiy EIZ" ishtirokchisi maqomini olgan korxonalar quyidagi to'lovlardan ozod etiladi:

- yer solig'i, daromad solig'i, yuridik shaxslar mol-mulk solig'i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovidan;
- o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan uskunalar, xomashyo, material va butlovchi qismlar uchun boj to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'imlardan tashqari) ozod qilingan mablag'lar yangi ish o'rinlari yaratish, shuningdek modernizatsiya, texnik va texnologik qayta jihozlash, ishlab chiqarish binolarini qurish, o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan xomashyo va materiallar sotib olish maqsadlariga sarflash sharti bilan;

• belgilangan tartibda shakllantiriluvchi ro'yxat bo'yicha respublikada ishlab chiqarilmaydigan va va lohihalarni amalga

ishtirokchisi doirasida olib kelinuvchi qurilish materiallari uchun boj to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruv uchun to'lovlardan tashqari).

Yuqorida sanab o'tilgan imtiyozlar kiritilgan investitsiya kompaniyalaridan kelib chiqqan holda 3 yildan 10 yilgacha muddatga quyidagi tartibda taqdim etiladi:

- 300 ming dollardan 3 mln dollargacha — 3 yil muddatga;
- 3 mln dollardan 5 mln dollargacha — 5 yil muddatga;
- 5 mln dollardan 10 mln dollargacha — 7 yil muddatga;
- 10 mln dollar va undan yuqori — 10 yil muddatga so'nggi 5 yilda bo'yda solig'i va yagona soliq to'lovi amaldagi stavkalaridan 50 foiz past hajmda qo'llangan holda.

Chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar muassislari — «Navoiy» EIZ ishtirokchilari va ularning oila a'zolari uchun 1 yildan mamlakat hududida amal qilish muddatini uzaytirish imkoni bo'lgan 3 yillik «investitsion viza» joriy etiladi.

Kelajakda ushbu markaz elektron kommertsiya hamda internet xizmatlaridan foydalanish DHL, FedEx, UPS kabi butun dunyoda faoliyat yurituvchi kurerlik kompaniyalari uchun ham juda qulay.

Bugungi kunda "Navoiy" havo darvozasi Yevropa va Osiyoning eng yirik logistikamarkazlari bilan boshlangan. Milliy aviakompaniya bu erdan Seul, Vena, Milan, Saragosa va Sabixa shaharlariga parvozlar amalga oshirmoqda. Aeroport kuniga 300 tonnagacha yuklarni import, eksport va tranzit qilishga mo'ljallangan. Shuningdek 1000 tonnagacha yuklarni saqlash imkoniga ega.

4.3. Ko'p tarmoqli logistik markazlar tashkil etishning jahon tajribasi va uni respublikamizga qo'llash

Xorijiy va ilg'or mahalliy tajriba shuni ko'rsatadiki, eng katta iqtisodiy samaradorlik logistika kompaniyalari (provayderlar, operatorlar) tovarlar va moddiy oqimlarni ilgari surish va saqlash uchun kompleksda turli xil logistika xizmatlarini ko'rsatadigan logistika xizmatlari bilan ta'minlanadi. Infratuzilmaviy ob'yektlar majmuasi, bu erda asosan operativ logistika faoliyati integratsiyasi va

muvofiglashtirilishi amalga oshiriladi, chet elda "logistika markazi" (LC) nomini oldi.

20-asrning 60-90-yillarida AQSh va Yevropada tovar oqimini tashish va taqsimlash sohasida quyidagi muammolar va tendensiyalar paydo bo'ldi, ularni ko'rib chiqish turli formatdagi LClarni yaratish zarurligini tushunish uchun zarurdir:

- yirik shaharlar yaqinida ombor joylarining etishmasligi;
- standart ISO konteynerlari yordamida mamlakatlar ichida intermodal (multimodal) tashishni rivojlantirish;
- avtomobil transportida yuk tashish hajmining sezilarli darajada oshishi;
- birinchi navbatda shaharlar ichidagi tirbandlikning haddan tashqari ko'pligi;
- temir yo'l transporti ulushining kamayishi va natijada milliy temir yo'llarni qo'llab-quvvatlash uchun intermodal (multimodal, kombinatsiyalangan) transport sxemalarini ishlab chiqish tashabbuslarining paydo bo'lishi;
- port imkoniyatlarining yo'qligi va portlarning o'zida ham, mamlakat ichida joylashgan hududlarda ham qo'shimcha yuk tashish va saqlash joylarini qurish zarurati.

Ro'yxatda keltirilgan omillarni logistika bozori ishtirokchilari ham, turli darajadagi hokimiyatlar ham - mahalliydan shtatga - hisobga olishlari kerak edi. Ijtimoiy muammolarni hal qilish zaruratidan tashqari (milliy temir yo'llarni qo'llab-quvvatlash; avtomobil transportidan kelib chiqadigan ekologik muammolar) ko'plab shtatlar rasmiylari kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashdan manfaatdor. So'nggi paytlarda bu muammo birinchi o'ringa chiqdi: o'z logistika tizimini yaratadigan kuchli logistika provayderlarining paydo bo'lishi kichik va o'rta firmalarning ahvolini yomonlashtirdi. Bundan tashqari, kichik kompaniyalar telematik tizimlarni yaratish muammosiga duch kelmoqdalar, ulardan foydalanish bugungi kunda logistika bozorida mavjud bo'lishining shartidir. Agar yirik firmalar o'z faoliyatini boshqarish uchun zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish imkoniyatiga ega bo'lsa,

demak kichik va o'rta biznes uchun IT-ni qo'llab-quvvatlashning yuqori narxi engib bo'lmas to'siq bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda jahonda 4000 ta erkin iqtisodiy zona (400 ta erkin savdo zona, yana shuncha ilmiy-ishlab chiqarish parki, 300 dan ziyod eksport-ishlab chiqarish parki, 100 ta maxsus yo'nalishdagi zona) faoliyat ko'rsatyapti, deb yozadi "Biznes-Daily".

Xitoydagi erkin iqtisodiy zonalar faoliyati.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, bugun Xitoy iqtisodiyoti o'sish sur'atlari bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda bo'lib, bunga jahondagi biznes munosabatlarni zudlik bilan o'zgartira olganligi sababli erishgan. Arzon ish kuchi G'arbda shippaklardan tortib mobil telefonlarga bo'lgan turli mahsulotlarning narxi arzonlashishiga sabab bo'ldi. Qolaversa, Xitoy Afrikada eng yirik investorga aylandi, Pekin Yevropa yoki Amerikani emas, aynan "qora qit'a"ni o'zining asosiy hamkori hisoblaydi.

Hozir Xitoy tovarlarini dunyoning hamma joyida ko'rish mumkin, XXI asrga kelib u chindan ham "dunyo fabrikasi"ga aylana oldi. Jahondagi fotoapparatlarning 50%i, konditsionerlarning 30 foizi, kir yuvish mashinalarining 25 foizi va sovutgichlarning qariyb 20 foizi aynan shu yerda ishlab chiqarilayapti.

Alohida qayd etish lozimki, Xitoy taraqqiyotida erkin iqtisodiy zonalarining o'rni katta bo'lgan. Ayni paytda bu yerda to'rta maxsus iqtisodiy zona faoliyat ko'rsatmoqda — Shenchjen, Chjuxay, Shantou va Syamen. Bundan tashqari, 14 ta erkin savdo zonasi, 53 ta yuqori va yangi texnologiyalar zonasi, xorijda tahsil olgan mutaxassislariga mo'ljallangan 70 dan ortiq ilmiy-texnik zona, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni qayta ishlaydigan 38 ta zona bor.

Umuman, **mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda asosiy e'tibor hududlar tabiiy resurslari hamda industrial salohiyatidan foydalanish va eksport tizimini kuchaytirishga qaratilmog'i lozim.** Aynan shu o'rinda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning unumli shakli bo'lgan zamonaviy erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu yo'nalishda jahon tajribasida keng qo'llanilayotgan va o'z

samarasini berayotgan bir qator iqtisodiy chora-tadbirlarni qayd etish joiz.

?

Nazorat savollari

1. Tashqi savdo tushunchasi. O'zbekiston Respublikasida EIX larni tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar.
2. Erkin iqtisodiy hududlarning afzalliklari.
3. "Navoiy" EIX ni tashkil etish va boshqarish.
4. "Navoiy" intermodal logistika markazi.
5. "Navoiy" xalqaro aeroporti.

V BOB. TRANSPORT LOGISTIKASI

- 5.1. Xalqaro transport tashuvlarida transport vositasini tanlash.
- 5.2. Tovarlar va transport vositalari oqimini tartibga solishda, yu'ni tovarlar va transport vositalari davlat bojxona chegaralari orqali olib o'tishda bojxona organlarining o'rni.
- 5.3. Avtomobil transporti, temir yo'l transporti, havo va suv transporti orqali tovarlar tashishning o'ziga xos xususiyati

5.1. Xalqaro transport tashuvlarida transport vositasini tanlash

Transport moddiy ishlab chiqarish sohasi bo'lib, yuk va odamlarni tasliishni amalga oshiradi.

Vazifasi bo'yicha transport ikki turga ajratiladi:

1. Umumiy foydalanish transporti — yuk va yo'lovchilarni tashib, barcha xalq xo'jaligi tarmoqlariga xizmat ko'rsatadi. Umumiy foydalanish transporti aholiga va xizmat ko'rsatish sohasiga xizmat ko'rsatadi. Umumiy foydalanish transporti o'z ichiga temir yo'l, suv transporti (daryo va dengiz) ni, avtomobil, havo transporti va truboprovod transportini oladi.

2. Umumiy foydalanishga mo'ljallanmagan transport — ishlab chiqarish ichidagi transport hamda notransport tashkilotlariga tegishli bo'lgan barcha transport turlari. Aniq yuk tashish jarayonini uzviy bog'langan bosqich va operatsiyalarga bo'lingan tizim orqali amalga oshirib, natijada yuk tashishda yuqori samaraga erishishga yuk tashish jarayoni texnologiyasi deyiladi.

Transport logistikasi — transport tizimlarini optimallashtirish, transport vositasining turi va tipini tanlash; turli kanalli yo'nalishdagi mol yetkazib berishlarni aniqlash; transport-ombor jarayoni texnologik birligini ta'minlash.

Transport orqali yuk tashishni tashkil etish bilan bogliq kompleks masalalar transport logistikasining predmetidir.

Transport logistikasining asosiy prinsipi xarajatlarni optimallashtirishdir.

Transport logistikasining asosiy vazifalari:

- transport vositalari turini tanlash;
- transport vositalari tipini tanlash;
- transport jarayonini ombor va ishlab chiqarish jarayoni bilan birgalikda rejalashtirish;
- har xil turdagi transportda transport jarayonini birgalikda rejalashtirish (aralash yuk tashish holatida);
- transport-ombor jarayonining birligini ta'minlash;
- yetkazib berishning ratsional yo'nalishlarini tanlash.

Transport ishida sinxronlikka erishish uchun "KANBAN" hamda "Aniq va o'z vaqtida" tizimlari qo'llaniladi. Qayd etilganlarning qo'llanilishi quyidagilardan iborat: agar asosiy ishlab chiqarishda sezilarli hajmdagi zaruriy materiallar, xomashyo, yarimtayyor mahsulotlar hamda butlovchi mahsulotlar zaxirasi to'g'risidagi axborotga ega bo'lmagan holda "grafikka qat'iy rioya etgan holda" texnologiyasi qo'llanilgan bir holatda sotish va harid qilish logistikasida yuk tashish vazifalari qisqa oraliq vaqtlar mobaynida ("KANBAN" tizimi) hamda qat'iy belgilangan vaqtda ("Aniq va o'z vaqtida" tizimi) amalga oshiriladi.

Transport turlarini tanlashda, ya'ni aniq yukni tashish uchun qulay bo'lgan turlicha transport turlarining xususiyatlari haqidagi axborotlar asos bo'ladi.

Bu yerda oltita omil belgilanadi: yetkazib berish vaqti, yuk jo'natish chastotasi, yuk yetkazib berish jadvalini bajarish, har xil yuklarni tashish qobiliyati, yuk tashish qiymati, yuklarni har qanday joyga yetkazib berish.

Turli xildagi omillarning ahamiyatlarini baholashning ekspert farqlari shuni ko'rsatadiki, transport turlarini tanlashda, birinchi navbatda, quyidagilar e'tiborga olinadi:

- yuklarni yetkazishning jadvaliga amal qilish;
- yukni yetkazish vaqti;
- yukni tashishning qiymati.

Transport turining to'g'ri aniqlanishi texnik iqtisodiy hisob-kitoblardan tasdiqlangan, barcha turli xil transport xarajatlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Masalan, 5 tonna qiymat bahodagi yukni (qiymati — 50000 dollar) avtomobilda tashish 1000 dollar, samolyotda esa — 3000 dollar.

Tanlov avtomobilda to'xtadi. Biroq keyinchalik o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, bunda yuk tashilganda tarifga qo'shimcha ravishda quyidagilar to'landi:

— yukni kuzatib boruvchiga: 5% yukning qiymati va qo'riqlash uchun, ya'ni 2000 dollar (samolyot bilan tashishda bu xarajatlar olinmaydi);

— bankir uchun: 1,5% yukning qiymati kredit foizi sifatida, chunki yuk 15 kun davomida tashilgan va bu davr ichida 50000 dollar zaxiraga o'tkazilgan bo'lib, 750 dollarni tashkil etdi.

5.2. Tovarlar va transport vositalari oqimini tartibga solishda, ya'ni tovarlar va transport vositalari davlat bojxona chegaralari orqali olib o'tishda bojxona organlarining o'rni

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 5-iyun kuni "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmonni imzoladi.

"Mamlakatimizda "qog'ozsiz va elektron bojxona" lozim darajada rivojlanmayapti, kontrabanda, kontrafakt mahsulotlarni olib o'tish, korrupsiya, noqonuniy valyuta operatsiyalari va bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi kurashish usullari bojxona ma'muriyatchiligining zamonaviy va sinovdan o'tkazilgan usullarini qo'llashni talab etmoqda", — ta'kidlanadi farmonda.

Farmonga muvofiq, **1-avgustdan** temir yo'l transporti tashkilotlari o'zlarining axborot tizimlarini bojxona organlarining axborot tizimlariga integratsiyalash orqali bojxona nazorati ostidagi vagon va konteynerlarning mamlakat ichidagi harakatlari haqidagi ma'lumotlarni bojxona organlariga real vaqt rejimida beg'araz tarzda taqdim etiladi.

1-sentyabrdan "Yagona darcha" bojxona axborot tizimi chegara bojxona postlarida joriy etiladi.

1-noyabrdan:

• bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish vaqti xavf darajasidan kelib chiqib, 3 sutkadan 1 kungacha qisqartiriladi;

• bojxona nazoratining muqobil turlarini qo'llashni kengaytirish orqali tovarlarni bojxona hamrohligida kuzatib borish qisqartiriladi, qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno;

• Davlat bojxona qo'mitasining xavflarni boshqarish tizimi avtomobil chegara bojxona postlarida joriy etiladi;

• transport vositalarini vaqtinchalik olib kirishda tashuvchiga real vaqt rejimida elektron shaklda qayta olib chiqish muddati tugashidan oldin vaqtinchalik olib kirish muddatini uzaytirish va tegishli yig'imni to'lashni amalga oshirish imkoniyati taqdim etiladi;

• "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimida qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini identifikatsiyalash va baholash uslubiyati tadbirkorlik sub'yektining o'zi tomonidan ishlab chiqiladi.

Shu bilan birga, Davlat bojxona qo'mitasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatiladi:

1. bojxona nazorati shakli sifatida tovarlar chiqarib yuborilgandan keyin TIF ishtirokchisi faoliyatini baholash hamda ularning tovarlar va transport vositalari chiqarib yuborilgandan keyingi hisobini tekshirishni nazarda tutuvchi bojxona auditini amalga oshirish;

2. Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazorati organlarining TIFni notarif tartibga solish choralarini qo'llash bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

3. tovarlar importi va eksporti tuzilmasi hamda dinamikasining chuqur holatli tahlilini, shuningdek, import hajmi ham jismoniy, ham qiymatli o'sishining sabablari tahlilini amalga oshirish;

4. ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish masalalari bo'yicha manfaatdor idoralar bilan hamkorlik o'rnatish.

Bundan tashqari, bojxona organlariga tovar va transport vositalari ustidan ular saqlanadigan va sotiladigan joylarga chiqqan holda, bojxona auditini amalga oshirish hamda olib kiriladigan va (yoki) olib chiqiladigan tovarlar va transport vositalari hisobi, jumladan,

buxgalterlik hisobi va hisoboti hujjatlari, shuningdek, dastlabki hujjatlar yuritilishi ustidan tekshiruvni amalga oshirish huquqlar berildi.

Kontrabanda va bojxona qonunchiligi buzilishiga qarshi kurashish boshqarmasi **Kontrabandaga qarshi kurashish va bojxona auditini bosh boshqarmasi** etib, Bojxona ekspertizasi va tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini yuritish boshqarmasi esa **Tashqi iqtisodiy faoliyatda notarif tartibga solishni nazorat qilish va bojxona ekspertizasi boshqarmasi** etib qayta tashkil etiladi.

Farmon bilan, shuningdek, 2020–2023-yillarda bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiya Jahon bojxona tashkilotining tavsiyalari hamda ilg'or mamlakatlarning bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish tajribasiga asoslangan yondashuvlarini o'z ichiga olgan.

Mazkur Konsepsiyada bojxona siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan bir qator **tizimli muammo va kamchiliklar** sanab o'tilgan. Jumladan ular qatorida:

• bojxona organlarining samarasiz va ortiqcha nazorat funksiyalari mavjudligi;

• eskirgan tartiblar hamda ularning xalqaro me'yorlar va standartlarga nomuvofiqligi;

• samarali idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi;

• bojxona operatsiyalarini amalga oshirishda ko'p vaqt sarflanishi va boshqalar.

Konsepsiyada ta'kidlanishicha, bojxona organlari faoliyatini **yaqin uch yilga quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish ko'zlagan**: bojxona sohasidagi normativhuquqiy bazani yanada takomillashtirish, zamonaviy va ilg'or AKTlarini bojxona sohasiga joriy etish orqali bojxona organlari faoliyati shaffofligi hamda samaradorligini ta'minlash, TIFni tarif va notarif jihatdan tartibga solishni soddalashtirish va boshqalar.

Mazkur Konsepsiyani amalga oshirishdan **kutilayotgan natijalar** qatorida:

- mavjud axborot tizimlarining mantiqiy nazorat funksiyalarini takomillashtirish orqali Davlat byudjetiga bojxona to'lovlari tushumini har yili **25%ga** oshirish;
- bojxona postlarining o'tkazuvchanlik imkoniyatini **3 barobarga** oshirish;
- "Yagona darcha" bojxona axborot tizimini takomillashtirish natijasida bojxona rasmiylashtiruv uchun sarflanadigan vaqtni eksportda **5 barobarga** va importda **2 barobarga** qisqartirish;
- bojxona organlari xodimlari tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar sonini kamaytirish va boshqalar.

5.3. Avtomobil transporti, temir yo'l transporti, havo va suv transporti orqali tovarlar tashishning o'ziga xos xususiyati va uni bojxona organlari tomonidan tartibga solish mexanizmi

Logistika nuqtayi nazaridan avtomobil, temir yo'l, suv va havo transportining asosiy afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqaylik.

Avtomobil transporti.

An'anaviy ravishda yuklarni kichik marshrutlarda tashish uchun foydalaniladi. Ularning asosiy afzalliklaridan biri yuqori darajadagi tezligi va moslashuvdir.

Avtomobil transport yordamida yuklar eshikning tagigacha zarur muddatlarda yetkazib beriladi. Transportlarning bu turlari yukni yetkazishni uzluksiz amalga oshirib, shuningdek, kichik to'plamlarda jo'natish imkoniyatlarini yaratadi.

Bu yerda boshqa transport turlariga qaraganda, tovarlarni o'rash va bog'lashga nisbatan qat'iy talablar kamroq qo'yiladi.

Avtomobil transportining asosiy kamchiliklariga nisbatan yuk tashish tannarxining yuqori bo'lishi bo'lib, ular uchun haq to'lash avtomobilning eng yuqori yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha olinadi. Bu transport turining boshqa kamchiliklariga, shuningdek, yuk tashishning muddati, yuklarning o'g'irlanish xavfi va avtomobillarni olib qochib ketishlik, yuk yuklash imkoniyatlarining ozligini ko'rsatish mumkin.

Avtomobil transporti ekologik jihatdan noqulay bo'lib, uning keng ravishda qo'llanishi cheklangandir.

Temir yo'l transporti.

Transportning bu turi turli to'plamlardagi yuklarni har qanday ob-havo sharoitlarida tashishga mo'ljallangan. Temir yo'l transporti uzoq masofalarga yuklarni tezlik bilan yetkazib berish imkoniyatlariga ega.

Yuk tashish uzluksiz davom etadi. Bu yerda samarali ravishda yuklash-tushirish ishlarini tashkil etish mumkin.

Temir yo'l transportining muhim afzalliklaridan bo'lib, uning tannarxining kam bo'lgani, shuningdek, chegirmalarning mavjudligidir.

Temir yo'l transportining kamchiliklariga yuk tashuvchilar sonining cheklanganligi, shuningdek, iste'molchilarga yuklarni yetkazib berish imkoniyatlarining pastligi, ya'ni yaqin yo'llarning bo'lmasligi temir yo'l transportini avtomobil transporti bilan to'ldirishga majbur etadi.

Dengiz transporti - xalqaro yuk tashish ishlarida yirik yuk tashuvchilardan hisoblanadi. Ularning asosiy afzalliklari yuk tariflarining kamligi va ko'p yuk jo'natish imkoniyatlaridir.

Terminallar orqali tashkil etilgan yuk tashishar *yuk tashish terminallari* deyiladi. *Yuk tashish* terminallarni bajaruvchisi transport ekspeditsiya firmalari hisoblanadi, ular kompleks va maxsus terminallar orqali ish bajaraladilar. Dengiz portining konteyner terminal — bu uchta asosiy transport turlari — dengiz, temir yo'l va avtomobil transporti o'rtasida konteynerlar, almashiladigan kuzovlar, konteynerlarni taqsim etuvchi transport bo'g'ini.

Dengiz portining konteyner terminallarida yuk tashirish operatsiyalari bilan bir qatorda yuklarni omborga joylashtirish va taqsimlash hamda o'z avtotransportida yaqin joylashgan yuk jo'natuvchi va iste'molchilarga yuk yetkazib berish amalga oshiriladi. Terminal uch zonaga bo'linadi:

- 1) ombor zonasi;
- 2) saralash va o'rash zonasi;
- 3) kemalar to'xtaydigan qirg'oq va ma'muriy zona.

«KANBAN» hamda «Aniq va o'z vaqtida» tizimlari bo'yicha ishlovchi ishlab chiqarish, ta'minot va sotuv dasturlarini taqsimlash — bu tovar ishlab chiqarish va ularni bozorlarga yetkazib berish usullarini mukammallashtirish natijasidir.

Transport turini tanlashda ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil farqlanadi (5.1-jadval).

Transport turini tanlashga ta'sir qiyadigan omillar bo'yicha turii transportlar bahosi¹

5.1-jadval

Transport turi	Transport turini tanlashga ta'sir qiyuvchi omil					
	Yetkazib berish muddati	Yuk jo'natish chas-totasi	Yetkazib berish jad-vailiga rioya qilish ishon-chililigi	Turili xil yuklarni tashish qobiliyati	Hududning istalgan nuq-tasiga yukni yetkazish qobiliyati	Ta-shish qiy-mati
Temir yo'l	3	4	3	2	2	3
Suv	4	5	4	1	4	1
Avtomobil	5	1	1	5	5	2
Quvur	5	1	1	5	5	2
Havo	1	3	5	4	3	5

Dengiz transportida yuk tashish uchun haq to'lash yo tarif bo'yicha yoki fraxt tizimida (kirakashlik uchun) amalga oshiriladi. Agar yuklar turg'un yuk oqimi bo'yicha yo'nalishga ega bo'lsa,⁶ yuk tashish suv kamchiligining muntazam tizimi orqali amalga oshiriladi.

Bunday hollarda yuklar belgilangan 5.1-jadval orqali harakat qiladi va e'lon qilingan tarif bo'yicha pul to'planadi.

Shunday hollarda yuklarni tashishda yuk kemalarining ishlari doimiy suzish hududlari bilan bog'lanmasdan doimiy portlarda

tushirish va yuklash bilan, ma'lum yuk turi bilan cheklanmay yuk tushish fraxt me'yori (kirakashlik tariflari) bo'yicha to'planadi.

Havo transport. Asosiy afzalliklari: tezligi, alohida rayonlarga yetkazish imkoniyati. Kamchiliklariga yuk ta'riflarining yuqoriligi va meteosharoitlar kiradi (yetkazib berish jadvaliga rioya qilish imkoniyatini tushiradigan meteosharoitlar).

Tayanch so'zlar:

Transport servis, temir yo'l transporti, dengiz transporti, havo transporti, temir yo'l transporti, KANBAN tizimi, transport xizmati, temir yo'l servisi, servis markazi, yuk terminali, logistik markaz, operator kompaniyasi, yo'lovchi terminali, servis xizmati.

?

Nazorat savollari

1. Transport logistikasining funksiyalari mohiyatini tushuntirib bering.
2. Transport vositalarning qanday tanlash omillarini bilasiz?
3. Transport tushunchasi va uning turlarini izohtah bering.
4. Yuklarni tashish jarayoni va uning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
5. Transport turlarini tanlash texnologiyasini tushuntirib bering
6. «KANBAN» tizimiga yondashish mohiyati nimadan iborat?
7. «Aniq va o'z vaqtida» tizimiga yondashish mohiyati nimadan iborat?
8. Transport tariflari tarkibiga nimalar kiradi?

⁶ Савенкова Т.И. Логистика. Учебное пособие, — М.: ОМЕГА — Л, 2006.

VI BOB. ISHLAB CHIQRISH LOGISTIKASI

6.1. Ishlab chiqarish logistikasi tushunchasi. Ishlab chiqarish logistikasining mohiyati va maqsadi.


6.2. Ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy va logistik konsepsiyalari.

6.3. Ishlab chiqarish logistikasida moddiy oqimlarni boshqarishning rag'batlantiruvchi tizimlari.

6.1. Ishlab chiqarish logistikasi tushunchasi. Ishlab chiqarish logistikasining mohiyati va maqsadi

Moddiy oqim, xomashyoning birinchi manbasidan oxirgi ishtirokchigacha bo'lgan yo'lida qator ishlab chiqarish bo'g'inlaridan o'tadi. Bu bosqichda moddiy oqimlarni boshqarish, o'ziga xos xususiyatlariga ega, va *ishlab chiqarish logistikasi* deb ataladi.

"Ishlab chiqarish" atamasining ma'nosini eslatib o'tamiz. Ma'lumki jamiyat ishlab chiqarishi moddiy va nomoddiy qismlarga bo'linadi (rasm). Ishlab chiqarish logistikasi, moddiy ishlab chiqarish sohasida yuz beradigan jarayonlarni ko'rib chiqadi.



6.1-rasm. Jamiyat ishlab chiqarishining tuzilmasi.

Ishlab chiqarish logistikasining maqsadi bu moddiy boyliklar yaratuvchi yoki saqlash, qadoqlash, joylash kabi moddiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar ichidagi moddiy oqimlarni optimizatsiyalashtirishdir. Ishlab chiqarish logistikasida o'rganiladigan ob'ektlarning tavsifiy belgisi - bu ularning hududiy ixcham joylashishidir.

Adabiyotlarda ularni "logistikaning orol ob'ektlari" deb ham atashadi.

Ishlab chiqarish logistikasi doirasidagi logistik jarayon ishtirokchilarini ichki ishlab chiqarish munosabatlari bog'lab turadi (tovar-pul munosabatlari bilan bog'langan makrodarajadagi logistik jarayon ishtirokchilaridan farqli ravishda).

Ishlab chiqarish logistikasida ko'riladigan logistik tizimlar, ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari nomi bilan yuritiladi. Ularga: sanoat korxonalarini, ombor inshootlariga ega ulgurji savdo korxonalarini, xo'jalik hamda fermer xo'jaliklarini va boshqalarni kiritish mumkin.

Ichki ishlab chiqarish logistik tizimlarini mikro va makro darajalarda ko'rib chiqish mumkin. Makrodarajada ishlab chiqarish logistik tizimlari makrologistik tizimlarning unsurlari sifatida namoyon bo'ladi. Ular moddiy oqimlar manbalari bo'lib, ushbu tizimlar ishining bir tekis borishini ta'minlaydilar. Makrologistik tizimlarni tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvi, ularning ichidagi ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari ishlab chiqaradigan mahsulotning assortimenti va miqdorini tez o'zgartira olish qobiliyatiga bog'liq.

Mikrodarajadagi ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari, bir-biri bilan o'zaro munosabatda va aloqalarda bo'lib, ma'lum birlikni, butunlikni vujudga keltirgan tizimchalar qatoridir. Bu tizimchalar: haridlar, omborlar, zaxiralar, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, transport, axborot, sotish va kadrlardir. Ular moddiy oqimni tizimga kirishi, undan o'tishi va chiqib ketishini ta'minlaydilar. Logistika konsepsiyasiga muvofiq ichki ishlab chiqarish logistik tizimlarining yaratilishi, korxonalar ichidagi ta'minot, ishlab chiqarish va sotish bo'g'inlarining rejalari va ishlarini doimiy ravishda o'zaro kelishilishi va to'g'rilanib borishi imkoniyatini ta'minlashi lozim.

6.2. Ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy va logistik konsepsiyalari

Ishlab chiqarishni tashkil etishning logistik konsepsiyasi quyidagi asosiy holatlarni o'z ichiga oladi:

- ortiqcha zaxiralardan voz kechish;

- asosiy va transport-ombor operatsiyalarini bajarish uchun ortiqcha vaqtdan voz kechish;

- iste'molchi buyurtmasi bo'lmagan mahsulotlarni ishlab chiqarishdan voz kechish;

- uskunalar to'xtab turishini yo'q qilish;

- sifatsiz mahsulotlarni yo'q qilish;

- xo'jalik ichidagi noratsional tashishlarni yo'q qilish;

- yetkazib beruvchilarni hamkorlarga aylantirish.

Logistikadan farqli o'laroq ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy konsepsiyasi quyidagilardan iborat:

- mahsulotni iloji boricha yirik partiyalarda ishlab chiqarish;

- "har ehtimolga qarshi" moddiy resurslarning maksimal katta zaxirasiga ega bo'lish.

Konseptual hollarning mazmuni shundan dalolat beradiki, ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy konsepsiyasi «sotuvchi bozori» sharoitlari uchun eng qulay bo'lsa, logistik konsepsiya «haridor bozori» sharoitlari uchun eng qulaydir.


Talab taklifdan ko'p bo'lsa, hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, bozor konyukturasini hisobga olib ishlab chiqarilgan mahsulot to'liq sotiladi. Shuning uchun asosiy ishlab chiqarish fondlari maksimal yuklash ustuvorlikka ega bo'ladi. Shu bilan birga ishlab chiqarilgan partiya qancha yirik bo'lsa mahsulot birligining tannarxi shuncha kam bo'ladi. Mahsulotni sotish birinchi darajali muammo bo'lmaydi.

Bozorga iste'molchi "diktaturasi" kelishi bilan vaziyat o'zgaradi. Raqobat sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish vazifasi birinchi o'ringa chiqadi. Bozor talabini muntazam emasligi va oldindan bilib bo'lmasiligi sharoitida katta zaxiralar yaratish va saqlash maqsadga muvofiq emasdir. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchi bitta buyurtmani ham qo'yib yubormaydi. Bundan, paydo bo'lgan talabga tez javob qaytara oladigan, egiluvchan ishlab chiqarish quvvatlariga ehtiyoj paydo bo'ladi.

6.3. Ishlab chiqarish logistikasida moddiy oqimlarni boshqarishning rag'batlantiruvchi tizimlari

Ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari doirasidagi moddiy oqimlarning boshqaruvi har xil usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Ushbu usullardan, bir-biridan prinsipial farq qiluvchi, ikkita asosiyini alohida ko'rib chiqish lozim, bular itaruvchi va yetaklovchi boshqaruv usullaridir.

Birinchi variant «rag'batlantiruvchi tizim» deb nom olgan, va uning ishlab chiqarishni tashkil etish tizimi 6.2-rasmda ko'rsatilgan. Moddiy oqim, ishlab chiqarishni boshqarishning markaziy tizimidan kelgan buyruqqa binoan oldingi bo'g'indan iste'molchi tomon «itarib chiqariladi».



6.2-rasm. Ishni ishlab chiqarish logistik tizimi doirasidagi moddiy oqim boshqaruvini rag'batlantiruvchi tizimining prinsipial sxemasi.

Oqimlarni boshqarishning rag'batlantiruvchi modellari, ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy usullari uchun xarakterlidir. Ishlab chiqarishning logistik tashkil etilishi uchun ularni qo'llashning qulay imkoniyati, hisoblash texnikasini ommaviy tarqalishi munosabati bilan paydo bo'ldi. Ularning birinchilari 60-yillarda ishlab chiqargan, xo'jalikning barcha bo'limlari (ta'minot, ishlab chiqarish va sotish) reja va xarajatlarini, kelishilishi va operativ to'g'irlanishi imkonini beradi (real vaqtdagi doimiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda). Ushbu tizimlar kiritilishi natijalarini bitta jumlada ifoda etish mumkin: "Bir necha haftada ishlab chiqariladigan ishlab chiqarish rejasini, endilikda bir necha soatda ishlab chiqarishimiz mumkin".

Mikroelektronika yordamida murakkab ishlab chiqarish mexanizmini bir butun qilish imkoniyatiga ega itaruvchi tizimlar, unga qaramasdan o'z imkoniyatlarining tabiiy chegaralariga ega. Boshqaruv tizimi, bo'limdagi ishlab chiqarish vaziyatiga ta'sir etadigan omillarni qay darajada hisobga olsa va baholasa, ushbu bo'limdagi «itarib chiqariladigan» moddiy oqim parametrlari ham shunchalik optimal bo'ladi. Ammo boshqaruv tizimi korxonada ko'p sonli bo'limlarining har biri bo'yicha qancha ko'p omillarni hisobga olishi lozim bo'lsa, uning dasturiy, axborot va texnik ta'minoti ham shunchalik takomillashgan va qimmat bo'ladi.

Amaliyotda, rag'batlantiruvchi tizimlarning turli xil variantlari mavjuddir. Ularning yaratilish imkoniyati hisoblash texnikasini ommaviy qo'llanilishiga bog'liqdir. Itaruvchi tizimlari boshqaruv avtomatizatsiyasining yuqori darajasi bilan tavsiflanadi, va bu avtomatizatsiya quyidagi asosiy funksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- ishlab chiqarish zaxiralarining joriy boshqaruvi va nazoratini ta'minlash;

- korxonaning ta'minot, ishlab chiqarish, sotish xizmatlari rejalarini va harakatlarini, real vaqt miqyosida, kelishilishi va operativ to'g'irlanishi.

Rag'batlantiruvchi tizimlarining zamonaviy, rivojlangan variantlarida bashorat qilishning ham turli xil masalalari yechiladi.

Ishlab chiqarishdagi logistik jarayonlarni tashkil etishning ikkinchi varianti, moddiy oqimlarni boshqarishning prinsipial boshqacha usuliga asoslangan. U «yetaklovchi tizim» deb nomlanadi. Bu ishlab chiqarishni tashkil etishning shunday tizimiki, unda zarur mahsulotlar keyingi bo'g'indan oldingisiga lozim bo'lgan taqdirdagina yetkaziladi.

Bu yerda markaziy boshqaruv tizimi korxonaning har xil bo'limlari orasidagi moddiy oqimlar almashinuviga aralashmaydi, va ular uchun joriy ishlab chiqarish vazifalarini belgilamaydi. Ayrim texnologik bo'g'in ishlab chiqarish texnologik zanjirining oxirgi bo'g'ini oldida vazifa qo'yadi. Yetaklovchi tizimning amal qilish mexanizmini tushunish uchun 6.3-rasmdagi misolni ko'rib chiqamiz.



Shartli belgilashlar:

- moddiy oqim, - axborot oqimi, а) - meva yetkazilishi; б) -

qayla;

в) - sharbat yetkazilishi; г) - tayyor;

д) - mevaga buyurtma; е) - qaylaga;

ж) - sharbatga buyurtma;

6.3-rasm. Ishlab chiqarish logistik tizimi doirasidagi moddiy oqim.

Faraz qilaylik meva qayta ishlash korxonasi 1500 birlik mahsulot (meva sharbati) ishlab chiqarishga buyurtma qabul qildi. Bu buyurtmani boshqaruv tizimi qadoqlash (tayyor mahsulot) bo'limiga jo'natadi. Qadoqlash bo'limi buyurtmani bajarish uchun sharbat bo'limidan 1500ta qadoq mahsulotga ketadigan sharbat so'raydi. Sharbat bo'limi o'z zaxirasidan so'ralgan mahsulotni yetkazadi va uni o'rni to'ldirish uchun qayla bo'limidan 1500 ta qadoq sharbat ishlab chiqarish uchun qayla so'raydi. Qayla bo'limi o'z zaxiralaridan so'ralgan mahsulotni yetkazadi va uni o'rni to'ldirish uchun ombordan meva so'raydi. Shunday qilib moddiy oqim har bir oldingi bo'g'in tomonidan «tortib olinadi».

Bunda ayrim bo'lim xodimlari, markaziy boshqaruv tizimiga nisbatan, optimal buyurtma o'lchamini aniqlovchi, ko'proq o'ziga xos omillarni hisobga olish imkoniyatiga ega. Ma'lumki, ishlab chiqarish korxonasidagi materialning 95-98% vaqti ortish-tushirish va transport-ombor ishlariga to'g'ri keladi. «Bosh», «Simens», «Mitsubishi» va «Djeneral motors» firmalari ma'lumotlariga ko'ra, korxonada moddiy oqimlarni boshqarishga logistik yondashish,

logistik operatsiyalar majmui bajarilishini maksimal optimallashtirishga imkon beradi. Korxonada moddiy oqimlarni boshqarishga logistik yondashuvni qo'llashdan vujudga keladigan umumiy samaraning tarkibiy qismlari quyidagilar:

1. Ishlab chiqarish bozorga mo'ljallangan. Kam hajmdagi va individual ishlab chiqarishga samarali o'tish mumkin bo'ladi.

2. Yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik munosabatlari o'rnatiladi.

3. Uskunalar to'xtab turishi qisqaradi. Bu ish joylarida kerakli materiallar doimo mavjud bo'lishi bilan ta'minlanadi.

4. Ishlab chiqarayotgan mahsulot sifati oshadi.

5. Ishlab chiqarish sikli kamayadi va xarajatlar minimallashtiriladi.

Ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish imkonini beradigan sabablarga to'laroq to'xtalib o'tamiz.

♦ Zaxiralari optimizatsiyasi - logistikaning markaziy muammolaridan biri. Zaxiralarni saqlash, moliyaviy mablag'lar ajratilishini, moddiy texnika baza va mehnat resurslarining katta qismining ishlatilishini talab qiladi. Ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy logistik uslublarini qo'llayotgan qator harbiy yevropa firmalari tajribalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, logistikani qo'llanilishi ishlab chiqarish zaxiralarini 50% ga kamaytirish imkonini beradi.

♦ Yordamchi ishchilar sonini kamayishi. Tizimlilik (ishni tizimli amalga oshishi) darajasi qancha past bo'lsa, mehnat jarayoni shunchalik aniqlanmagan bo'ladi, bu esa ishning katta hajmlarini bajarishda yordamchi ishchilarga bo'lgan ehtiyoj shunchalik ortishiga olib keladi.

♦ Materiallar yo'qotilishini kamayishi. Istalgan logistik operatsiya - bu potensial yo'qotishlar. Logistik operatsiyalar optimizatsiyasi - bu yo'qotishlarni kamayishidir.

♦ Ishlab chiqarish va ombor maydonlari ishlatilishini yaxlitlash. Oqim jarayonlarining noaniqligi ko'proq qo'shimcha maydonlarni oldindan egallab qo'yishga undaydi. Masalan, ulgurji savdo bazalari

loyihasida, oqim jarayonlarining noaniqligi ombor maydonlarini 30%ga oshirilishiga majbur qilgan.

♦ Jarohatlarning kamayishi. Logistik yondashuv o'z ichiga mehnat xavfsizligi tizimini ham kiritadi.

Tayanch so'z va iboralar: logistik tizim, ishlab chiqarish logistikasi, funksional farqlanishida, «uzatuvchi» tizim, harid logistikasi, «tortuvchi» tizimi, vaqt normasi, boshqaruv tizimi.



Nazorat savollari

1. Logistik tizim va uning tarkibiy elementlari nimalardan iborat?
2. Ishlab chiqarish jarayonida logistik tizimning o'rni nimada?
3. Ishlab chiqarishda an'anaviy va logistik yondashuvlarning farqlanishi qanday belgilanadi?
4. Ishlab chiqarishda — uzatuvchi tizim nima?
5. Ishlab chiqarishda — tortuvchi tizim nima?
6. Ishlab chiqarish jarayonlarida transport logistikasining funksiyalari?

VII BOB. TIJORAT LOGISTIKASI TUSHUNCHASI VA UNING MAQSADI

- 7.1. Tijorat logistikasi tushunchasi. Tijorat logistikasini mohiyati va maqsadi.
- 7.2. Tovar harakati bo'g'inlaridagi logistika.
- 7.3. Savdo korxonalaridagi logistika xizmati.
- 7.4. Savdo sohasida logistikaning rivojlanish shart-sharoitlari va muammolari.

7.1. Tijorat logistikasi tushunchasi. Tijorat logistikasini mohiyati va maqsadi

Logistika tovar harakatidagi ishtirokchilar o'rtasidagi turg'un xo'jalik aloqalarining mavjudligini nazarda tutadi. Biznes bo'yicha doimiy ravishdagi sheriklar o'rtasidagina zarur bo'lgan harajatlarni hisobga olish tizimining ravshanligi yuzasidan yuklarni va axborotlarni qayta ishlash texnologiyalarining birgalikda ishlab chiqish va kelishilgan holda qo'llash imkoniyatlari paydo bo'ladi.

90-yillarning oxirlarida vujudga kelgan markazdan qochish kayfiyatlari mulkni davlat tasarrufidan chiqarish istiqbolidan kelib chiqilgani holda, endilikda turli xildagi savdo tarkiblarining umumiy tashkiliy shakllaridagi xo'jalik faoliyatlarini ongli ravishda birlashishga intilish kuchayib bormoqda. Savdoga nisbatan soha bo'yicha birlashtirishning tashqi va ichki omillarini ajratiladi.

Savdo uchun tashqi omillar, soha bo'yicha birlashtirish jarayonlarining rivojlanishini rag'batlantiruvchi narsalar quyidagilardir:

- bozorning noaniqligi;
 - turli sabablarga ko'ra tushib borayotgan talablar;
 - tovarlarni sotish muammolarining keskinlashuvi;
 - savdo faoliyatidagi infratuzilmalarning rivojlanmaganligi
- sababli vujudga kelgan tovar harakati yo'lidagi ko'p sonli murakkab harakatlardir.

Savdodagi birlashtirishning ichki omillaridan ya'ni asosiy ichki omillar maqomi bo'lib raqobatning kuchayishi, uning rivojlanmagan shakllarida bo'lsa ham hisoblanadi.

Jahon savdo amaliyotini nazarda tutish kerakki, savdodagi birlashtirish jarayonlari birlashishning shunday turlaridan bo'lgan holatlarda vujudga keladi:

- zanjirli savdo tashkilotlari;
- savdo tarkibidagi kooperativ – shirkat birlashmalari;
- ixtiyoriy ravishda tarkib topgan ulgurji-chakana bo'g'inlar.

Shuni ta'kidlash zarurki, logistik imkoniyatlardagi yuksak birlashtirish (tarmoqli) tarkiblarning qulayligini aytish lozim. Masalan, yirik amerikalik va yevropalik chakana va ulgurji savdo axborot tizimidagi birlashishlik xizmat ko'rsatayotgan do'konlardagi peshtaxtalarda tovar miqdorining kamayganligini avtovatika yordamida tovar yetkazib beruvchini xabardor qiladi. Shveytsariya savdo tizimi Migrozning misoli diqqatga sazovordir, u milliy iste'mol bozorining 46 %ini o'z ichiga olgandir. Bu yerda do'konlarning talabnomalari avtomatik ravishda markaziy ulgurji omborlarga yoki tez ayniydigan mahsulotlar bo'yicha esa ishlab chiqaradigan zavodga beriladi. Tizim bo'yicha savdo jarayonlarini avtomatlashritish shunchalik darajada yuqoriki ko'pchilik do'konlarda tovar yetkazib berish va uning sifatini nazorat qilish yuzasidan menejerlar bo'lmaydi. Xizmat ko'rsatish hududida tarmoq tarkiblari bir necha taqsimot markazlarini barpo etishlari mumkin va yuk tashishni amalga oshirish va yuklarni kuzatib borish yuzasida tashqaridagi ixtisoslashgan logistik kompaniya bilan shartnomalar tuzish mumkin.

Savdodagi birlashish, hamda uning ob'yektiv qonuniy rivojlanishlari so'zsiz mamlakatimizda ham o'zining namoyon etadi. Tashkiliy iqtisodiy nuqtai nazardan savdo korxonalarining birlashishlaridagi turli shakllarining rivojlanishi quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ✓ markazlashtirilgan boshqarish xizmatlarini joriy qilish, ta'minot, transport va hisobot faoliyatlarini markazlashtirish hisobiga ustama harajatlarini kamaytirish;

✓ qulay to'lash va tovar yetkazib berish sharoitlari asosida yirik tovar to'plamlarini sotib olishni amalga oshirish, ular natijasida narx darajasi va haridorlarning manfaatlariga ta'sir ko'rsatish;

✓ tarmoqni boshqarishni amalga ochirish uchun zamonaviy axborot texnologiyasidan foydalanish hamda sotiladigan mahsulotlar ro'yxati bo'yicha axborotlar to'plarni barpo etish;

✓ tovar yetkazib berishda mamlakat ishlab chiqaruvchilarini har tomonlama qo'llab quvvatlash;

✓ savdo tashkilotlarini qo'shimcha xizmatlarini kichik nonvovxonalarini tashkil etish, go'shtlarni yarim mahsulot sifatida qayta ishlash sexlarini va boshqalarni tashkil etish.

G'arbning ayrim mamlakatlaridagi savdosida logistik tizimning rivojlanishida tarmoqlarning mavjudligini natijasida shart-sharoitlar vujudga kelgan bo'lib ularning hissasiga savdo aylanishining 90 % miqdori to'g'ri keladi.

7.2. Tovar harakati bo'g'inlaridagi logistika

Ulgurji savdodagi logistika. Logistika nuqtai-nazaridan tovar harakati jarayonlari ishtirokchilarining eng ahamiyatlilari ulgurji va transport bo'g'inlari hisoblanadi.

Ulgurji savdoda logistikani takomillashtirish ikkita yo'nalish bilan amalga oshiriladi, ulardan biri ulgurji savdoni texnik texnologik va tovar harakatlanishining barcha tizimini tashkiliy jihatdan takomillashtirish ulgurji savdoni rivojlantirish bilan o'zaro aloqada bo'lishlikni nazarda tutadi. Ikkinchi yo'nalish esa ichki omborlar bo'yicha yuklarni qayta ishlash tizimlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Ikkinchi yo'nalishning mavjudligi shunday shartsharoitni vujudga keltiradiki, ulgurji savdo korxonasining o'zi ham murakkab yuklarni qayta ishlash tizimidagi omborlaridan iboratdir. Ushbu tizimlar doirasida tovar oqimlarini boshqarishga nisbatan logistik yondoshuvning qo'llash ulgurji bo'g'inning samarali faoliyat ko'rsatishida muhim tarkibiy qismlar hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ulgurji savdoda ichki omborlar logistikasi bozor o'zgarishlarining boshlarida keng ko'lamda rivojlanmadi. Yuklash-tushirish va transport ombor ishlarini mexanizatsiyalash

darajasi 11%dan (oziq-ovqat mahsulotlari) oshmas edi. Faqatgina o'z miqdordagi ulgurji bazalarda ichki ombor ishlari mexanizatsiyalashgan bo'lib, elektroyuklagich va to'plab bo'g'langan yuklar texnologiyasi bo'yicha ish qilinadi.

Hozirgi davrda ommaviy iste'moldagi yuklarni olib kelish bo'yicha ombortransport harajatlari yuklar qiymatining 40 %dan ortig'ini tashkil etadi. Logistika rivojlangan mamlakatlarda bu xarajatlar 15%dan oshmaydi.

Tovarlarni sotish jarayonlarida ulgurji korxonalar logistik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarishlari mumkin: tovarlarni saqlash, transportlarda tashish, yuklarni kuzatib borish, o'rab-bog'lash, ishlash, sortlarga ajratish, tovarlarni idishlarga joylash, mashinalar kodiga moslashtirib tamg'alash va boshqalar.

Xorijiy manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan bozor sharoitlarida ulgurji korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan pul to'lanadigan xizmatlar ichida birinchi o'rinda transport, undan keyin saqlash bo'yicha xizmatlar, tamg'alash, sortlarga ajratish va tovarlarni o'rab-bog'lash turadi.

Mamlakatimiz korxonalarida yuqorida sanab o'tilgan xizmat turlari, saqlashdan tashqari keng ko'lamda rivojlangan emas. O'zbekiston Respublikasining ulgurji savdosida samaradorlikni oshirishning muhim rezervlari axborot tizimlari va texnologiyalarni takomillashtirish, tovar harakatlari jarayonlariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liqdir.

Hozirgi paytda yuk birliklarini kodlashtirish va shtrixlangan mashinada o'qish kodlarini, binobarin, bu kodlarning avtomatlashgan holdagi uyg'unlashtirilishi qo'llanilmaydi. Shuningdek yuk to'plamlari uchun EAN tizimining standart yozuvlari hali qo'llanilmaydi.

Chakana savdodagi logistika.

Chakana savdoni takomillashtirish ulgurji savdo singari, logistika nuqtai nazaridan birinchi navbatda tovarlar harakati tizimining bo'g'inlarini takomillashtirish sifatida qaralmog'i kerak. Yangilana-digan ob'yekt sifatida bunday hollarda tovar harakatidagi ishtirokchilarning barcha to'plarni maydonga chiqadi. Chakana savdo

bo'g'inlari shu darajada takomillashadiki, bunda umumiy istiqbol nuqtai nazaridan qanchalik zarur bo'lib, tanlab olingan tizimni takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Logistik xususiyatdagi qarorga kelish do'konlarni loyihalash davridayoq qabul qilinib, ularning binolari bevosita uzluksiz texnologik jarayonlarni talablariga javob berishi kerak.

Bevosita uzluksiz texnologik jarayonlarning manfaatlarini hisobga olib tanlashda:

✓ ayrim binolarning o'lchamlari, maydonchalari va texnologik tegralar;

✓ eshiklarning kengligi;

✓ tushiriladigan maydonchalarning balandligi va maydoni;

✓ savdo binolarining joylashishi hisobga olinadi.

Bevosita uzluksiz tovar o'tkazish tizimiga do'kon uskunalarining kompleksi uyg'unlashgan va joylashishi kerak. Do'kon ishlab chiqarish kuchlarining barcha tarkibiy qismi: binolar, texnologik uskunalar, xodimlar, axborot, tovarlar va qaytariladigan idishlar yagona tizimga bog'lanishi kerak, hamda ular o'z navbatida tovar harakatlarining umumiy tizimiga ulanishi kerak.

Tovar harakati logistikasida transport masalasi.

Tovar harakatining oxirgi iste'molchiga bo'lgan qiymatlarida sezilarli darajada ularning taqsimoti jarayonlarida transport ishlarini tashkillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Logistika rivojlangan mamlakatlarda yuk tashish bilan odatda maxsus ixtisoslashtirilgan transport kompaniyalari shug'ullanadi. Bozor iqtisodiyoti boshlanishiga qadar mamlakatimizda transport ishlari asosan ixtisoslashtirilgan transport korxonalarini tomonidan amalga oshirilib kelingan.

Hozirgi davrda transport ishlarining ulgurji savdoga aloqasi bo'lmagan holda mustaqil ravishda bajarilishi ko'plab uchraydi. Natijada avtomobilda yuk tashish hollarining ko'pchiligida yuk tashish koeffitsiyenti 0,5 dan oshmaydi, transportning yuk tashish imkoniyatlaridan to'liq foydalanish ta'minlanmaydi.

7.3. Savdo korxonalaridagi logistika xizmati

Logistika xizmatining mavjudligi tarmoqli tarkiblar uchun nihoyatda muhimdir. Biroq mamlakatimiz sharoitida bunday tarkiblar hali rivojlangan emas. Shu boisdan, hozirgi kunda logistika vazifalarining ayrim alohida savdo korxonalarida bajarilishi haqida gap yuritish mumkin. Savdo korxonasidagi logistika – bu birinchi navbatda tizimga oid shaxsdir. Uning faoliyatidagi asosiy maqsad tovar harakatini uyg'unlashtirish, bunda korxonaning har tomonlama tashqi muhitga bog'lash yo'li bilan ham, shuningdek korxonada ishida savdo texnologik jarayonlarning o'xshashlik bilan tashkillashtirish hisobiga amalga oshiradi.

Savdo korxonasining logistik tezkor rejasidagi logistika savdo xizmatidagi xodimlarning ishlarini yengillatishga ularni qator ma'muriy vazifalarni bajarishdan ozod qilishga, shuningdek transport, ombor jarayonlarini boshqarish majburiyatlaridan xalos etadi.

Logistika sohasidagi mutaxassislar, odatda yuqori darajada zarur bo'lgan savdo sohasidagi texnologik va texnika iqtisodiy hisob-kitoblarni yuksak darajada bajarish qobiliyatlariga egadir, hamda ularning his-tuyg'ular sohasidan aniq hisob-kitoblar sohasiga aylantira oladilar.

Savdo korxonalarida logistikaga talablarni joylashtirish va zahiralarni rezervga bevosita javobgarlikni yuklaydilar.

Harid qilish sohasidagi logistikaning maqsadlari quyidagilardan iboratdir:

• korxonaning harid qilish bo'yicha uning o'mini mustahkamlash;

• harid qilish shart-sharoitlarini yaxshilash va transport tayyorlov xarajatlarini qisqartirish hisobiga xarajatlarni kamaytirish;

Sotish sohasi bo'yicha logistika savdo bo'limlaridagi tovar zahiralarga javob beradi, hamda u quyidagilarga erishishi kerak:

• tovarlarning yaxshi sifatlarda taqdimot qilish hisobiga keng ko'lamdagi tovar turlari, o'z vaqtida kamlarini to'ldirib qobiliyatini kuchaytirish va tovar aylanishini oshirish;

• ombor maydonlarini qisqartirish va ombordagi tovar zahiralari kamaytirish hisobiga xarajatlarni kamaytirish.

Rivojlangan logistika moddiy vositalar oqimining doirasidan chiqishi va tadbirkorlik muhandislik jarayonlari doirasida uzliksiz jarayonlarni tashkillashtirish tizimidagi masalalarni savdo korxonasining barcha tadbirkorlik faoliyati bo'yicha hal etish mumkin.

7.4. Savdo sohasida logistikaning rivojlanish shart-sharoitlari va muammolari

Moddiy vositalar oqimini boshqarishning logistik usulini joriy etish, odatda, jiddiy muammolar bilan bog'langan bo'lib, jahon tajribalarining ko'rsatishicha, amalga oshirsa bo'ladigan ishdir.

Logistika – bu savdo sohasining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi bo'lib, odatda shunday paytlarda foydalana boshlaydiki, bunda rivojlanish imkoniyatlarining ekstensiv usullari qo'l kelmay qolganida foydalaniladi. Masalan, Fransiyada logistika sohasidagi keskin burilish hukumat tomonidan yirik yangi do'konlarni qurish imkoniyatlarini cheklash chorasi ko'rilgandan so'ng sodir etildi.

Logistika sohasiga bo'lgan qiziqish ko'pincha savdo xizmati bozoridagi raqobatning rivojlanishi darajasi bilan belgilanadi.

Hozirgi davrda tovar turlarining ko'payib borishi sharoitida tovarlar bilan bo'ladigan zamonaviy texnologik ishlarsiz, yuklarsiz axborotlarsiz samarali boshqarish mumkin emas. Qattiq, uzluksiz ravishdagi nazorat tizimini joriy etish talab qilinadi, shuningdek bozorlarda tez aynib qoladagan, hamda alohida saqlash shart-sharoitlarini talab etadigan mahsulotlarning paydo bo'lishi zahiralarni boshqarishni taqazo etadi.

Logistika – bu yuqori darajadagi aniq mexanizm bo'lib, yomon tashkil etilgan kishi shaxsiyati bilan birgalikda nizolarga kiradi. Shu boisdan masalan AQSH logistika sohasidagi kishilarning kattagina qismini sobiq harbiylar tashkil etadi, ular uchun shaxsiy tashkillanish – kasb mahoratiga oid sifatdir. Yaponiya korxonalarida logistika sohasidagi hayratlanarli muvaffaqiyatlarga ega bo'lishlik o'zlarining tarkiblarida ijrochilar, vijdonan ishiga yondoshuvchilar va intizomli xodimlarning bo'lishliklari bejj emasdir. Logistika umumiy tizimga

ko'p narsalarni beradi, biroq u ayrim ishtirokchining erkin harakatini cheklaydi. Bu sohadagi ma'lum darajadagi kelishuvlarga kelishni o'rganish lozim bo'ladi.

Logistikaning keng ravishda tarqalishini faqatgina unga bo'lgan talabning o'sishi bilan tushuntirib bo'lmaydi. Iqtisodda ushbu talablarni qondirish mumkin bo'lgan sharoitlar yuzaga kelishi lozim. Bunday sharoitlar zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti tomonidan ta'minlanadi. Natijada ilmiy-texnika taraqqiyoti tomonidan moddiy vositalar va axborot oqimlari bilan ishlash uchun har xil turdagi mehnat vositalari keng ko'lamda yaratiladi va qo'llanila boshlaydi. Logistika jarayonlarining aniq sharoitlardan foydalanish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda logistikaning rivojlanishdagi muhim ahamiyatlaridan biri bo'lib, logistik jarayonlarni boshqarishni kompyuterlashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Savdodagi logistik rivojlanish muammolari quyidagilardan iborat:

> tovar harakatlari ishtirokchilari o'rtasida yo'lga qo'yilgan logistik aloqalarning bo'lmashligi va birinchi navbatda, ulgurji va chakana savdo korxonalarini o'rtasidagi aloqalarning puxta bo'lmashligidir;

> ulgurji va chakana savdo, transport korxonalarining past texnika darajalarining mavjudligidir;

> axborot texnologiyalarining rivojlanganligi. Axborotlarni to'plash, saqlash, ma'lum tartibda ishlash va tovar harakati ishtirokchilari o'rtasida axborot almashishni ta'minlashda axborot tizimining yo'qligidir.

> logistik vositachilikning yaxshi rivojlanmaganligi, ayrim o'ziga xos bo'lmagan ishlarning mustaqil ravishda ulgurji va chakana savdo korxonalarini tomonidan bajarilish amallari (masalan yuklarni transportda tashish);

> mamlakat tovar bozorida zamonaviy raqobatbardoshlikning yaxshi rivojlanmaganligi, savdo ustamalarining yuksak darajasi, oxir oqibatda, logistikani qo'llash sohasidagi tovar harakati ishtirokchilari tomonidan bo'ladigan qiziqishning bo'lmashligi, ishlab chiqarish va

xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirishga ta'minlovchi omillar-ning bo'lmasligidir;

➤ idishlarni aylanishini tashkillashtirish bilan bog'liq muam-molar;

➤ bozor sharoitidagi moddiy vositalarni uzluksiz bevosita o'tka-zishni shakllantirishdagi puxta ishlab chiqilgan usullarning bo'lmas-
ligidir;

➤ tovar harakatlarini tashkillashtirishdagi logistik sharoitlardagi ulgurji savdo tajribalarining yetarli bo'lmasligi, shuningdek korxonaxodimlari tomonidan ulgurji va chakana savdo sohasidagi logistik yondoshuvning moddiy vositalar oqimini boshqaruv bo'yicha aniq tushunchalarning yetarli bo'lmasligidir.

Savdoni logistik tashkillashtirish imkoniyatlarining muhim shart-sharoitlaridan bo'lib, ilmiy-texnika taraqqiyoti hisoblanadi, hamda bunda savdoga oid masalalarning tegishli ijtimoiy-iqtisodiy sohalari tushunilib, ularning moddiy texnika bazalarini takomillashtirish, soha korxonalarida ilg'or texnologiya jarayonlarini joriy qilish va keng ravishda foydalanish, shuningdek bu jarayonlarga savdo korxonalariga kelib tushayotgan moddiy vositalar va axborot oqimlarining tayyorgarligini oshirishdan iboratdir. Moddiy vositalar bilan ishlashda texnika jihatdan takomillashgan ko'tarishtransport va texnologik uskunalardan foydalanish zarur. Sohani texnik jihatdan rivojlantirish siyosati tizim xususiyatini ishlab chiqishga asoslangan bo'lishi kerak (masalan, ulgurji va chakana savdo korxonalar uchun mashinalar tizimini ishlab chiqish).

Ulgurji savdoning ombor fondi keng o'Ichamli bir qavatli baland binolar va inshootlar bilan to'ldirilgan bo'lib, yuklarni tashish, mexanizatsiyalash va transport texnologiya jarayonlarini Avtomatlashtirishda yuqori samarali texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini ta'minlashi kerak. Savdoda logistikani tashkillashtirishdagi muhim omillardan bo'lib qo'llanilayotgan mehnat vositalarini takomillashtirish, axborot oqimlari bilan ishlash, shu jumladan axborot tizimlarini qo'llash, moddiy vositalar oqimining uzluksiz monitoringini ta'minlashi hisoblanadi.

Savdo korxonalarining mehnat vositalari bilan ta'minlanishi (logistikani qo'llash shartlari) savdo korxonalarini zarur bo'lgan ko'tarish transport, texnologik va savdo uskunalari bilan jihozlash, shuningdek mavjud texnikaning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Mehnat buyumlaridan foydalanishni takomillashtirish o'z ichiga idishlarning yangi turlaridan foydalanish, savdo qilishda asosan qadoqlangan tovarlarga o'tish, shuningdek shtrixlangan kod bilan tamg'alangan (kelajakda shtrix kodlari qo'yilgan yuk to'plamlari bilan ishlashga o'tish) idishlarini o'z ichiga oladi. Ilmiy-texnikaviy rivojlanishning sezilarli ko'rsatkichlaridan bo'lib, har bir soha bo'yicha qo'llaniladigan texnologiya hisoblanadi. Hozirgi bosqichda savdo korxonalarida qo'llaniladigan texnologiyalarning taraqqiyot darajasi to'plangan yuklarni yuk o'tkazish bo'g'inlari orqali olib borish imkoniyatlari, yuk va tovar birliklarining avtomatlashtirilgan uyg'unlashuv imkoniyatlari, shuningdek tovar o'tkazishdagi ishtirokchilarning axborot almashuvidagi jadalliklar bilan belgilanadi. Logistika nuqtai nazaridan ilmiy-texnika taraqqiyotining aytib o'tilgan yo'nalishlari, ulgurji holda, ajralgan holatda rivojlanmasdan balki kelishilgan holda rivojlanishi zarurdir: sanoat korxonalarida, ulgurji savdoda, transportda, chakana savdoda, ya'ni tovar bozorining barcha ishtirokchilari bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak.

?

Nazorat savollari

1. Logistik tamoyillarning maqsadi haqida nima bilasiz?
2. Logistika va savdoni tashkil qilish uchun qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Tovar harakati bo'g'inlarida qanday logistika mavjud?
4. Savdo korxonalaridagi logistik xizmatlar haqida nimalar bilasiz?
5. Logistikani savdoda qo'llashning asosiy samaradorligi nimalardan iborat?

VIII BOB. OMBORXONA LOGISTIKASI

Omborxonada logistika tushunchasi, uning mohiyati va maqsadi.

8.1. Ombor faoliyatining asosiy funksiyalari.

8.2. Omborda texnologik jarayonni tashkil qilish.

8.3. Omborga mahsulotlarni qabul qilish va joylashtirish.

8.1. Omborxonada logistika tushunchasi, uning mohiyati va maqsadi



Omborxonada tushunchasi. Ombor deganda tovarlarni qabul qilish, saqlash, joylashtirish va taqsimlash bo'yicha amaliyotlar kompleksini amalga oshirishga mo'ljallangan, maxsus texnologik uskunalardan jihozlangan bino, inshoot va turli qurilmalar tushuniladi.

Omborlarning asosiy vazifasi — iste'molchilarning buyurtmasini zaxirasini jamlash, ularni saqlash va uzluksiz bir me'yorda ta'minlanishini amalga oshirish.

Ombor yoki omborlar majmui xizmat ko'rsatish infrastrukturasidan birgalikda ombor xo'jaligini tashkil etadi. Sanoat korxonalarida ombor xo'jaligining asosiy vazifasi sanoatning tegishli moddiy resurslari bilan to'g'ri oziqlanishini, ularning saqlanishini tashkil etish va omborxonada amaliyotlarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni imkon boricha qisqartirishdir.

Logistika tizimida omborlarning ahamiyati va o'rnini. Omborlar logistika tizimining asosiy qismlaridan birini tashkil etadi. Logistika tizim omborlarga bo'lgan tashkiliy va texnik-iqtisodiy talablarni shakllantiradi, omborlar tizimining maqsadini va eng maqbul ishlash mezonini belgilaydi, yuklarni qayta ishlash shartlarini aniqlaydi. O'z navbatida, materiallarni omborga joylashtirishni tashkil etib (omborni joylashtirishga joy tanlash, materiallarni saqlash usullari va boshqalar) zaxiraning logistika tizimining turli qismlarida

aylanishi bilan bog'liq xarajatlarga, miqdoriga va harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Logistika omborlari ham ijobiy, ham salbiy ahamiyatga ega. (omborlarda saqlashning salbiy tomoni shundaki, zaxiralarni omborlarda saqlash bilan bog'liq xarajatlarni hisobiga tovar narxi oshadi. Bu omborga joylashtirish amaliyotlariga sarflanadigan xarajatlarni, omborxonani ijaraga olish, omborlarni tartibda saqlash bilan bog'liq joriy xarajatlardir.

Bundan tashqari omborxonada zaxirasi tashkil etilishi natijasida boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin bo'lgan ko'p miqdordagi moliyaviy resurslar ishga solinmay qoladi. Shu sababli mahsulotlarni omborxonada joylashtirish xarajatlarni kamaytirishga yoki logistika servis sifatini oshirishga imkon bersagina o'zini oqlaydi (talabga tez javob berishga yoki arzon narxlarda oldindan sotib olish hisobiga iqtisodga erishish).

Omborga joylashtirishning ijobiy tomoni shundaki, ishlab chiqarish to'g'rilab olinadi, yuklarni butlashga, zaxiralarni to'plashga va taqsimlashga kerakli texnik va tashkiliy sharoitlar yaratiladi.

Demak, ombor xizmati logistika — bu ombor xo'jaligida oqimning qayta ishlash jarayonida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq operatsiyalar kompleksidir.

Ombor xizmati — logistikasining o'rganish ob'ekti tovar-moddiy qiymatliklarini omborga joylashtirish, yukni qayta ishlash va o'rash jarayonidir.

Omborga joylashtirish — logistika kanal ishtirokchilari tomonidan zaxiralarni saqlash, ularning butligini ta'minlash, ularni maqsadga muvofiq (ratsional) joylashtirish, hisobga olish, doimo yangilab turish va xizmatlarning xavfsiz usullaridan iboratdir.

Omborlarning roli va o'rnini tahlil qilganda iyerarxiyaning turli bosqichlarida, ya'ni umumdavlat, regional, lokal va ishlab chiqarish bosqichlarida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ombor xo'jaligini tashkil etishning eng sodda variantlaridan biri keng tarmoqli tuzilmadir. Bunday tuzilmada qaysidir bir to'plash punkti boshqa bir nechta punktlar uchun manba — ombor bo'ladi.

